

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT
UNIVERSITETI**

“IQTISODIYOT” FAKULTETI

**IQTISODIY TADQIQOTLAR
(ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ,
“ECONOMIC RESEARCH)**

ILMIY JURNALI

2

2023

Toshkent

2
2023

Elektron ilmiy jurnal
Научный электронный журнал
Scientific digital journal

IQTISODIY TADQIQOTLAR
ELEKTRON ILMIY JURNALI

MUASSIS

Toshkent davlat
iqtisodiyot universiteti

Tahrir kengashi raisi:

Abduraxmonov Qalandar Xodjayevich – i.f.d., prof., akademik

Tahrir kengashi:

Eshov Mansur Po'latovich - i.f.d., professor
Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna – i.f.d., professor
Xudoyqulov Sadridin Karimovich – i.f.d., professor
Begalov Baxodir Abdusalovich – i.f.d., professor
Bekmurodov Adxam Sharipovich - i.f.d., professor
Vaxabov Abduraxim Vasikovich - i.f.d., professor
Maxmudov Nosir Maxmudovich - i.f.d., professor
Salimov Baxtiyor Tadjiyevich - i.f.d., professor
Mustafaqulov Sherzod Igamberdiyevich - i.f.d., professor
Jumayev Nodir Xosiyatovich - i.f.d., professor
G'ofurov Ubaydullo Vaxabovich - i.f.d., professor
Xolmo'minov Shayzaq Raxmatovich - i.f.d., professor
Amirov Lochinbek Fayzullayevich – i.f.f.d., dotsent
Xatamov Ibodullo Sadullayevich – i.f.n., dotsent
Asqarova Mavluda Turopovna – i.f.n., dotsent
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich – i.f.n., dotsent
G'ayibnazarov Sanjar Baxodirovich – i.f.n., dotsent
Kamalova Malika Nizamovna – i.f.n., dotsent
Mamaraximov Bekzod Erkinovich – i.f.n., dotsent

Tahrir hay'ati:

Begzod O'rinov – (AQSh)
Uktam Burxanov – (Chexiya)
Bozorboy Berkinov – i.f.d. (O'zbekiston)
Mark Rozenbaum (AQSh)
Volfgang Lukas (Germaniya)
N.V.Morozov (Rossiya)
Viktoriya Vdovichenko (Ukraina)
Gulyabmir Raxmani (Afg'oniston)
Axmed Muxamed Aziz Ismail (Misr)
Kaukab Azim (Saudiya Arabistoni)
Sherqul Shodmonov (Toshkent)
Rauf Salaxodjayev (Toshkent)
Axmedjon Mamatov (Toshkent)
Ju Jengron (Xitoy)
Jou Chingjiye (Xitoy)

**IQTISODIY TADQIQOTLAR
ELEKTRON ILMIY JURNALI**

**2
2023**

**Elektron ilmiy jurnal
Научный электронный журнал
Scientific digital journal**

Bosh muharrir:

Eshov M.P.- i.f.d., prof.

Adabiy muharrir

Xajiyev B.D.- i.f.n., dots.

Bosh muharrir o'rinbosari

Amirov L.F. - PhD

Musahhih:

Jurnal sahifalarida chop etilgan materiallardan foydalanilganda "Iqtisodiy tadqiqotlar" elektron ilmiy jurnalidan olindi deb ko'rsatilishi shart.

Tahririyat taqdim etilgan maqolalarni taqriz qilish va qaytarish majburiyatini olmagan. Maqolada keltirilgan dalillar va ma'lumotlar uchun muallif javobgar.

Veb-sayt manzili: <https://economicresearch.tsue.uz>

E-mail: economicresearchjournal@gmail.com

MUNDARIJA

IQTISODIYOT, INNOVASIYA VA TADBIRKORLIK NAZARIYA VA AMALIYOT

Topildiyev S.R., Raxmonov B.SH., Botirova X.O.	Mamlakatimizda paxtachilik-to‘qimachilik klasterlarini tashkil etishning tashkiliy asoslari	5
Kaxorova A.N.	Innovatsion faoliyatning asosi – intellektual salohiyat	12

BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH: MAKROIQTISODIY YONDOSHUV

Mamatov M.A. Jo‘rayev G.B.	Analysis of the organizational and economic mechanisms of ensuring the quality of economic growth in agriculture	22
Shadmanov E.Sh. Sherkulov Sh.E.	Analysis of the organizational and economic mechanisms of ensuring the quality of economic growth in agriculture	38

INSON RESURLARINI BOSHQARISH, IJTIMOIIY SIYOSAT VA BANDLIK

Sherkulova N.B.	Rekruting agentliklari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy asoslari	47
-----------------	---	----

TARMOQLAR IQTISODIYOTI VA REAL SEKTORNI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISH

Topildiyev S.R.	Mamlakatimizda agrar sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari	57
Sharipov K.B.	Tarmoq bo‘yicha ixtisoslashuv jarayonlarini tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga ta’siri bo‘yicha jahon tajribasi	63
Suvpo‘latov O. A.	Sanoat korxonalarining mehnat resurslaridan samarali foydalanishning uslubiy asoslari	72
Ro‘ziyeva D.I. Fayziyeva D.B.	Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznesning ro‘lini oshirish va uni qo‘llab-quvvatlash	80

**MAMLAKATIMIZDA PAXTACHILIK-TO‘QIMACHILIK
KLASTERLARINI TASHKIL ETISHNING TASHKILIY ASOSLARI**

**ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ ПРИНЦИПЫ ОРГАНИЗАЦИИ
ХЛОПКОВО-ТЕКСТИЛЬНОГО КЛАСТЕРА В НАШЕЙ СТРАНЕ**

**ORGANIZATIONAL PRINCIPLES OF ORGANIZING COTTON-
TEXTILE CLUSTER IN OUR COUNTRY**

S.R.Topildiyev, TDIU dotsenti, i.f.d.

B.SH.Raxmonov, TDIU assistenti

X.O.Botirova, TDIU assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda paxtachilik-to‘qimachilik klasterlarini tashkil etish g‘oyasi ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan. Hamda paxtachilik-to‘qimachilik klasterlarini tashkil etishni to‘rtta bosqichga ajratilgan holda mualliflik fikrlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Klaster, agrar-sanoat, innovatsiya, investitsiya, ishlab chiqarish, integratsiya.

Аннотация. В данной статье научно и практически обосновывается идея создания хлопково-текстильных кластеров в Узбекистане. Дано авторский подход организации на четырех этапах хлопково-текстильных кластеров.

Ключевые слова: кластер, аграрная индустрия, инновации, инвестиции, производство, интеграция.

Abstract. In this article will be proved scientific and practical side of idea of creating cotton-textile cluster in Uzbekistan. Will be given author’s method of organization which conclude four stage of cotton-textile cluster.

Key words: cluster, agrarian industry, innovations, investments, production, integration.

KIRISH

Milliy paxtachilik-to‘qimachilik klasterlarini tashkil etish g‘oyasi bu paxta xomashyosi yetishtirishga ixtisoslashgan tumanlarda yetishtirilgan mahsulotni chuqur qayta ishlashni tashkil qilish 193 asosida yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish, ichki bozorni sifatli va arzon to‘qimachilik mahsulotlari bilan ta’minlash

hamda ularni eksportga yo'naltirish hisobiga mamlakat valyuta tushumini keskin oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish hamda turmush tarzini yaxshilash hisoblanadi. Paxtachilik-to'qimachilik klasterlarini tashkil etish va uning huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy asoslari keng yoritish uchun uning nazariy jihatlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

ASOSIY QISM

Bozor iqtisodiyoti sharoitida to'qimachilik sanoati korxonalarini o'z daromadlarini oshirish maqsadida qo'shimcha manbalarni topishga harakat qiladi va buni o'z faoliyatini kengaytirish hisobiga ham amalga oshirishi mumkin.

Bunday sharoitda juda ko'p tarqalgan usul bu korxonalarining birlashishidir. Ma'lumki, har qanday korxonalarining integratsiyasi, xususan, to'qimachilik sanoati korxonalarini, odatda u yuqori samaraga erishish maqsadida amalga oshiriladi, ya'ni korxonalar resurslarini birlashtirish yoki ularni kooperatsiya qilish hisobiga qo'shimcha samarga erishiladi. Tashkilotlarning birlashishi korxonalarining yuqori natijalarga erishish uchun ishlab chiqilgan umumiy korporativ strategiyasi doirasida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Bugungi kunda strategiyalarning bir nechta turlari mavjud, jumladan: samarani faoliyat ko'lamini hisobiga oshirish (tarmoq kuchlarini birlashtirish doirasida); jug'rofiy diversifikatsiya; vertikal integratsiya sharoitida iqtisodiy havfsizlikni ta'minlash va bozor prinsiplarini kuchaytirish; yangi texnologiyalar keng foydalanish va boshqalar. Integratsiya strategiyalarni amalga oshirish vositalaridan biri bu uyg'unlashgan ko'rsatkichlar tizimi (Balanced ScoreCard, BSC) hisoblanadi. Ushbu strategiya shaklini Garvard Universiteti xuzuridagi Biznes maktab professori Robert Kaplan va boshqaruv masalalari bo'yicha amerikalik konsultant Devid Nortonlar 90-yillar boshida ishlab chiqishgan. Uyg'unlashgan ko'rsatkichlar tizimi – bu korxonalar faoliyatining barcha, ya'ni ham moliyaviy, ham nomoliyaviy jihatlarini o'zida aks ettirgan optimal tanlab olingan ko'rsatkichlar bo'yicha korxonalar samaradorligini aniqlash va baholashga asoslangan boshqaruv tizimidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Robert Kaplan va Devid Norton tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida shunday xulosaga kelindi, jumladan, muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan korxonalar uyg'unlashgan ko'rsatkichlar tizimini shakllantirishda kamida to'rtta omil: moliya, xaridorlar, ichki biznes jarayonlari, ta'lim va rivojlantirishni inobatga olishlari lozim. Bizning fikrimizcha, yuqorida keltirilgan olimlar g'oyasi O'zbekistonda paxtachilik-to'qimachilik klasterlarni shakllantirish uchun muhim ilmiy va iqtisodiy asos sifatida qabul qilishimiz mumkin.

Shu nuqtai nazardan, to'qimachilik korxonalarini iqtisodiy salohiyati to'qimachilik korxonalarini klasteri asosida oshirish, ya'ni klasterni paxta xomashyosini yetishtiruvchilar, birlamchi va chuqur qayta ishlovchilar, xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasida kooperatsiya aloqalarini maqsadli tashkil etish quyidagi bosqichlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq va keltirilgan:

1. Klaster modelini amalga oshirishga davlat, hududlar, xo'jalik yuritish subyektlari tayyorligini baholash;
2. Paxtachilik-to'qimachilik klasterning bosh maqsadini aniqlash;
3. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish zanjirini shakllantirish;
4. Paxtachilik-to'qimachilik klasterini rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini aniqlash.

Yuqoridagi bosqichlarni tahlil qilib chiqsak:

1. Klaster modelini amalga oshirishga davlat, hududlar, korxonalar tayyorligini baholash bosqichida klaster tushunchasiga qisqacha to'xtalib o'tamiz, jumladan klasterlar sinergetik samarani oshirish uchun juda qulay vosita hisoblanadi, modomiki sinergiya odatda alohida elementlarning yetarli darajadagi integratsiyasi tizimida vujudga keladi. Bunday sharoitda senergetik samara asosi – bu elementlarning optimal uyg'unlashuvi, o'zaro aloqalar samaradorligi va tizim elementlari sifati hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, korxonalar qanchalik katta bo'lsa u sinergiyani joriy qilish bo'yicha imkoniyatlari yuqori bo'ladi va ularda iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llari ko'payadi. Umuman olib qaraganda, bugungi kunda klasterlarni tashkil etish bo'yicha davlat tomonidan barcha huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratilgan. Hududlarda esa, paxta xom-ashyosini yetishtirish va uni qayta ishlash bo'yicha faoliyat yuritayotgan xo'jalik yuritish su'bektleri yetarli salohiyatga ega. Demak, ushbu xo'jalik yuritish subyektlar faoliyatini uyg'unlashtirish imkoniyati mavjud va buni bizning fikrimizcha klaster modeli asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq.

2. Paxtachilik-to'qimachilik klasterini rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini aniqlash bosqichi paxtachilik-to'qimachilik klasterlarning bosh maqsadi zamonaviy to'qimachilik sanoatini shakllantirish, paxta xom-ashyosini yetishtirishda samarali usullarni joriy qilish, respublikada birlamchi (paxta xom ashyosini qayta ishlash) va chuqur (paxta tolasini qayta ishlash) qayta ishlovchi korxonalar bilan paxta xom-ashyosini yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarining uzviy bog'liqligini ta'minlash, ushbu jarayonlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish, qishloq xo'jaligi hamda ushbu sohada mehnat unumdorligi va ish haqini oshirish hisoblanadi.

3. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish zanjirini shakllantirish. bosqichda asosiy xo‘jalik yuritish subyektlari bu paxta xom-ashyosini yetishtiruvchilar (fermer xo‘jaliklari), birlamchi qayta ishlash (paxta xom-ashyosini qayta ishlovchi korxonalar) va chuqur qayta ishlash (to‘qimachilik sanoati korxonalari) korxonalar hisoblanadi. Bugungi kunda ushbu xo‘jalik yuritish subyektlari ichida asosan to‘qimachilik sanoati korxonalari iqtisodiy jihatdan barqaror hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ushbu uchta xo‘jalik yuritish subyektlari faoliyatini uzviy bog‘lash va uyg‘unlashtirish yuqori iqtisodiy samaradorlikka olib keladi. Shu bilan bir qatorda, ularni ayrim resurslar bilan ta‘minlash, ta‘lim va innovatsiya yo‘nalishida qo‘llab-quvvatlash uchun bezash va boshqa butlovchi qismlarni yetkazib beruvchi firmalar, o‘quv va innovatsiya markazlari bilan o‘zaro integratsiya asosida faoliyat yuritish maqsadga muvofiq. So‘nggi bo‘g‘in bu iste‘mol bozorlari bo‘lib, bunda asosiy e‘tibor tashqi bozorga qaratiladi. Bunda jahon to‘qimachilik bozorida o‘zbek milliy mahsulotlari ulushini oshirish va raqobatbardoshligini ta‘minlashga asosiy e‘tibor qaratiladi.

4. Paxtachilik-to‘qimachilik klasterini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini aniqlash bosqich yuqorida keltirilgan bosqichlarni davomiy qismi bo‘lib bunda O‘zbekistonda paxtachilik-to‘qimachilik klasterlarini rivojlantirishning asosiy mexanizmlari va chora-tadbirlarini quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha aks ettiradi:

- iste‘molchilar va ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi ishlab chiqarish integratsiyasi;
- ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va mehnat unumdorligini oshirish;
- texnik va texnologik jarayonlarni shakllantirish;

Ichki to‘qimachilik mahsulotlari bozorini himoya qilish mexanizmlarini optimallashtirish va boshqalar. Yuqorida keltirilgan bosqichlar va ularni amalga oshirishda quyidagi omillar va ularning barqarorligini ta‘minlash choratadbirlariga alohida e‘tibor qaratish lozim. Jumladan:

- moliyaviy omil – uning asosiy maqsadi foydani oshirish, xarajatlarni kamaytirish, ichki va jahon to‘qimachilik bozoridagi ulushini oshirish;
- xaridorlar omili – uning asosiy maqsadi xaridorlarni qanoatlantirish, mavjud xaridorlarni saqlab qolish va yangi ishbilarmonlar bilan aloqalarni mustahkamlash;
- ichki ishbilarmonlik muhiti omili – ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, zamonaviy va ilg‘or asbob-uskunalarini sotib olish, mahsulot tarkibi va assortimentini kengaytirish;
- ta‘lim va kadrlar salohiyatini oshirish omili

- mavjud mehnat kollektivini saqlab qolish, mehnat unumdorligi va ish haqini oshirish, ishchi xodimlarning o'z ishidan qanoatlanish darajasini oshirish.

MUHOKAMA

Bizning fikrimizcha, paxtachilik-to'qimachilik klasterlarini tashkil etish maqsadlariga erishganlikni baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanishni taklif etamiz va ular quyidagicha:

- moliyaviy omil – uning asosiy maqsadi foydani oshirish, xarajatlarni kamaytirish, ichki va jahon to'qimachilik bozoridagi ulushini oshirish;
- xaridorlar omili – uning asosiy maqsadi xaridorlarni qanoatlantirish, mavjud xaridorlarni saqlab qolish va yangi ishbilarmonlar bilan aloqalarni mustahkamlash;
- ichki ishbilarmonlik muhiti omili – ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, zamonaviy va ilg'or asbob-uskunalarni sotib olish, mahsulot tarkibi va assortimentini kengaytirish;
- ta'lim va kadrlar salohiyatini oshirish omili – mavjud mehnat kollektivini saqlab qolish, mehnat unumdorligi va ish haqini oshirish, ishchi xodimlarning o'z ishidan qanoatlanish darajasini oshirish.

Paxtachilik-to'qimachilik klasterlarini tashkil etish maqsadlariga erishganlikni baholash ko'rsatkichlari:

-moliyaviy omil bo'yicha:

-foydani oshirish

-sof foyda;

-xarajatlarni kamaytirish

-sotilgan mahsulot hajmida xarajatlar ulushi, 1 so'm sotilgan mahsulot uchun xarajatlar; (ichki va jahon to'qimachilik bozoridagi ulushining ortishi

-mahsulot sotishdan olingan daromad;

-xaridorlar omili bo'yicha:

-sotilgan mahsulot hajmi va mahsulot sotishdan olingan daromad;

Omillar va ularning barqarorligini ta'minlash chora-tadbirlari Moliyaviy Xaridorlar Ichki ishbilarmonlik muhiti Ta'lim va kadrlar salohiyatini oshirish foydani oshirish:

-sof foyda Xarajatlarni kamaytirish:

-sotilgan mahsulot hajmida xarajatlar ulushi;

1 so'm sotilgan mahsulot uchun xarajatlar Xaridorlarni qanoatlantirish: - sotilgan mahsulot hajmi va mahsulot sotishdan olingan daromad Zamonaviy va ilg'or asbob-uskunalarni sotib olish:

-asosiy vositalarining balans qiymati

-xarajatlarni boshqarish bo'yicha zamonaviy tizimni joriy qilish:

- mahsulot tannarxida operatsion xarajatlar ulushi mahsulot tarkibi va assortimenti kengaytirish:
- mahsulot turlarining yangilanish tezligi mavjud mehnat kollektivini saqlab qolish:
- ishchilar soni Mehnat unumdorligi va ish haqini oshirish:
- 1 ishchiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi;
- o'rtacha ish haqi miqdori Ishchi xodimlarning o'z ishidan qanoatlanish darajasini oshirish:
- ishlab chiqarishda yuz bergan nohush xodisalar soni Ichki va jahon to'qimachilik bozoridagi ulushini oshirish:
- mahsulot sotishdan olingan daromad
- ichki ishbilarmonlik muhiti:
- zamonaviy va ilg'or asbob-uskunalarni sotib olish
- asosiy vositalarning balans qiymati;
- xarajatlarni boshqarish bo'yicha zamonaviy tizimni joriy qilish
- mahsulot tannarxida operatsion xarajatlar ulushi;
- mahsulot tarkibi va assortimenti kengaytirish
- mahsulot turlarining yangilanish tezligi;
- ta'lim va kadrlar salohiyatini oshirish:
- mavjud mehnat kollektivini saqlab qolish
- ishchilar soni;
- mehnat unumdorligi va ish haqini oshirish
- 1 ishchiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, o'rtacha ish haqi miqdori;
- ishchi xodimlarning o'z ishidan qanoatlanish darajasini oshirish
- ishlab chiqarishda yuz bergan nohush xodisalar soni.

Ma'lumki, yuqorida keltirilgan paxtachilik-to'qimachilik klasterlarni tashkil qilishning ilmiy jihatlari va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari asosida O'zbekistonda paxtachilik-to'qimachilik klasterlarini tashkil etish bo'yicha bir qator huquqiy-meyoriy xujjatlar qabul qilindi.

Jumladan: (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 maydagi "Buxoro viloyatida zamonaviy paxtachilik-to'qimachilik klasterini barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2978-sonli Qarori; (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 sentabrdagi "Sirdaryo viloyatida zamonaviy paxtachilik-to'qimachilik klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3279-sonli qarori; ("O'zbekiston Respublikasida paxtachilik-to'qimachilik klasterlarini tashkil etish konsepsiyasi" loyihasi ishlab chiqildi; (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 19 sentabrdagi «Paxta-

to‘qimachilik ishlab chiqarishlarini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 744-sonli qarorlari O‘zbekistonda paxtachilik-to‘qimachilik klasterlarini rivojlantirish uchun asos bo‘ladi. Fikrimizcha xulosa o‘rnida O‘zbekistonda paxtachilik-to‘qimachilik klasterlarini tashkil etish paxta xom-ashyosini yetishtirishdan boshlab, chuqur qayta ishlash asosida tayyor to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va ushbu mahsulotlar bilan ichki bozor talabini to‘liq qondirish va jahon to‘qimachilik bozoriga jadal kirib borish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, qishloq joylarda zamonaviy ish o‘rinlari yaratiladi va aholi daromadlari oshishi hisobiga ularning turmush darajasini keskin yaxshilanadi. O‘zbekistonda paxtachilik-to‘qimachilik klasterlarini tashkil etish g‘oyasi ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan.

XULOSA

O‘zbekistonda paxtachilik-to‘qimachilik klasterlarini tashkil etish bosqichlari tasniflangan holda quyidagi bosqichlarga ajratilgan holda keng yoritib berilgan:

- klaster modelini amalga oshirishga davlat, hududlar, xo‘jalik yuritish subyektlari tayyorligini baholash.
- paxtachilik-to‘qimachilik klasterning bosh maqsadini aniqlash.
- mahsulot ishlab chiqarish va sotish zanjirini shakllantirish.

paxtachilik-to‘qimachilik klasterini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini aniqlash. Paxtachilik-to‘qimachilik klasterlarini tashkil etish omillari va ularning barqarorligini ta‘minlash chora-tadbirlari, tashkil etish maqsadlariga erishganlikni baholash ko‘rsatkichlari ilmiy va iqtisodiy jihatdan asoslab berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 2017—2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. 2017 yil 4947-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 dekabrda “2017-2019 yillarda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi PQ-2687-sonli Qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so‘zi, 23.12.2017 yil.
4. Kaplan, Robert S., and David Norton. Using the Balanced Scorecard as a Strategic Management System. Harvard Business Review 70, no. 1 (January–February 1996): pp.75–85.
5. Бушуева М. А. Синергия в кластере Интернет-журнал «НАУКОВЕДЕНИЕ» №4 2012. – С. 1-6.

**INNOVATION FAOLIYATNING ASOSI – INTELEKTUAL
SALOHİYAT**

**ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ – ОСНОВА
ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

**THE BASIS OF INNOVATIVE ACTIVITY IS INTELLECTUAL
COMPETENCE**

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Fundamental iktisodiyot” kafedrası assistenti
Kaxorova Anora Nusratovna
e-mail:kahorovaanora1991@gmail.com**

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamiyat taraqqiyoti uchun ilm-fan, intellektual salohiyat va bu borada sarflanadigan investitsiyalarning ahamiyati hamda ushbu jarayonning O‘zbekistondagi kechagi va bugungi holati, bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar keng tahlil qilingan. Shuningdek, kelajakda jamiyat va ta’lim sohasini innovatsion rivojlantirish, aholi, ayniqsa, yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish va o‘zbek xalqining buyuk ajdodlari ijodini dunyoga targ‘ib qilish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: ilm-fan, ta’lim, tarbiya, innovatsiya, investitsiya, salohiyat, mahorat, pedagogika.

Аннотация. В данной статье подробно анализируются наука, интеллектуальный потенциал и инвестиционное образование, потраченные на развитие общества в этой связи, а также вчерашнее и сегодняшнее состояние этого процесса в Узбекистане, реформы, реализуемые в этом направлении. В любом случае вам следует стремиться к инновациям, но, в конце концов, чтобы ваши знания были такими же, как и ваши знания, если вы жена, у вас есть интеллектуальные способности, которые можно расширить в вашем бизнесе.

Ключевые слова: наука, образование, подготовка кадров, инновации, инвестиции, потенциал, навыки, педагогика.

Annatation: In this article, the importance of science, intellectual potential and investments in this regard for the development of society, as well as the yesterday and today's state of this process in Uzbekistan, and the reforms implemented in this regard, are extensively analyzed. Also, in the future, proposals were put forward for innovative development of society and the field of

education, increasing the intellectual potential of the population, especially the young generation, and promoting the creativity of the great ancestors of the Uzbek people to the world.

Key words: science, education, upbringing, innovation, investment, potential, skills, pedagogy.

KIRISH

Asrlar davomida erishilgan rivojlanish darajasi, takomillashtirilgan fanlarning nazariy va falsafiy hamda amaliy jihatlari asosan X asrdan boshlangan bo'lsa, texnika va texnologiyalarni ixtiro qilinishi, ularni jadallik bilan rivojlantirish XIX-XXI asrlarga to'g'ri keladi, barcha innovatsion mahsulotlar aynan shu davrda yaratildi.

Ushbu davr ichida yuqori sur'at bilan rivojlanish darajasi dastlab "Buyuk ipak yo'li" mamlakatlaridan Yevropaga, keyinchalik esa Amerika va Osiyo (Sharqiy Osiyo) qit'alariga o'tgan. Erishilgan taraqqiyotning barchasi – ixtirolar, yangiliklar, kashfiyotlar ya'ni, innovatsion faoliyatning maxsuli hisoblanadi, ular ikki yuz yillikdan beri insoniyatga xizmat qilib kelmoqda.


Yer shari aholisining soni jadal sur'atlar bilan ko'payib, mavjud resurslar esa qisqarib bormoqda. Milliard aholi XVII asrgacha shakllangan bo'lsa, ikkinchi milliard aholi uchun 200 yil talab qilingan. Hozirga kelib, har bir milliard aholining o'sishi uchun 20-30 yil yetarli bo'lib qoldi. Inson hayoti uchun zarur bo'lgan resurslarning chegaralanganligi, yil sayin ularni kamayib borishi, oziq-ovqat xavfsizligi kabi muammolar har bir mamlakat oldiga qo'yilgan asosiy vazifa bo'lib qoldi. Jumladan, 1994 yil O'zbekiston aholisi 22,2 mln. kishi bo'lib, yer maydoni 447,4 ming kv.km.ni tashkil qilar edi. Bugunga kelib aholi soni 34 mln.ga yetdi, yer maydoni esa o'zgarmaydi.

Ushbu global muammolarning yechimini topish uchun insondan idrok etishni, fikr-mulohazalar, ixtirolar qilishni talab qiladi, innovatsion faoliyatga zarurat shakllanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Innovatsion rivojlanishni shakllantirish jarayoni asosan uchta ta'minlovchi mexanizmdan iborat va ularning mohiyati har xil miqdorga ega. Xususan, amaliy mohiyati bo'yicha: birinchi o'rinda intellektual salohiyat, ikkinchi o'rinda investitsiya va uchinchi o'rinda tashkiliy tizimlardan iboratdir. Intellektual salohiyat bo'lmasa, investitsiyaga ham ehtiyoj qolmaydi, tashkiliy tizim ham zarur bo'ymaydi. Hozirgacha O'zbekistonda ularning o'zaro bog'liqligining miqdoriy nisbati aniqlanmagan. Albatta, har bir ixtiro va tadqiqotning o'ziga xos


xususiyatidan kelib chiqib, nisbatlar har xil bo‘ladi. 1-rasm bo‘yicha $MIR=A+B+S+D=100\%$, bu yerda (A) ning salmog‘i yuqoriligiga shubha yo‘q.



1-rasm. Innovatsion rivojlanishni shakllantirish uslubi

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, agar intellektual salohiyat (A) mazkur tizimda yetakchi bo‘lsa, mamlakatimizda intellektual salohiyatning holati qanaqa, potentsiali qancha va uni yanada rivojlantirish uchun nima qilish kerak? Shuningdek, innovatsiyani rivojlantirishga, ilmiy tadqiqot-ixtirolarga ajratilgan investitsiyalardan (D) qay darajada samarali foydalanilmoqda kabi savollarga javob topish lozim bo‘ladi.

Inson tug‘ilishi bilan unda intellektual faoliyat shakllana boshlaydi va u har bir inson uchun turli nisbatga ega bo‘ladi. Bilim, ta’lim olayotgan bolalarimizni intellektual salohiyati bo‘yicha shartli ravishda uch guruhga bo‘lishimiz mumkin, ya’ni:



2-rasm. Millatning intellektual salohiyatini takomillashtirish mexanizmi

NATIJALAR

Tabiiyki, ikkinchi guruh birinchiga, uchinchi guruh ikkinchiga intiladi. Ushbu jarayonda asosan bilim beruvchi pedagog va uning mahorati, oila va atrof muhit muhim hisoblanadi. Guruhda ta'lim olayotgan bolalar, talabalar yuqorida qayt etilgan uch guruhni tashkil qiladi, ya'ni, ular yuqori (IS1), o'rta (IS2) va past (IS3) darajadagi intellektual salohiyatga egadirlar. Ularning salmog'i fanlar va mutaxassislik bo'yicha har xil miqdorga ega. Ushbu holatni to'g'ri baholab, o'quv jarayonini samarali tashkil qilish pedagogning mahoratiga bog'liq bo'ladi. Shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda intellektual salohiyatni baholash bo'yicha usullar va ba'zi ko'rsatkichlar mavjud, ammo, ular to'liq talablarga javob bermaydi, takomillashtirish lozim. YA'ni, qaysi omillar qay darajada intellektual salohiyatni oshirishini baholash muhim hisoblanadi.

O'zbekistonda innovatsion faoliyatni yanada rivojlantirishga nasliy asos bor. YA'ni, tarixga nazar tashlasak, Markaziy Osiyoda faqat O'zbekistonda yashab, ijod qilgan allomalarimiz Al-Xorazmiy, Al-Buxoriy, Al-Farg'oniy, Ali Abu Ibn Sino, Ulug'beklar tomonlaridan yaratilgan va butun dunyo-insoniyat tan olgan fundamental fanlar bugungi kunda ham o'z qadr-qimmatini yo'qotgani yo'q. Ular tomonidan yaratilgan matematika, astronomiya, tibbiyot, fizika, tabiiy fanlar, qonunshunoslik xamda falsafa kabi fundamental fanlar asrlar davomida insoniyatga xizmat qilib kelmoqda.

Afsuslar bo'lsinkim, Sobiq ittifoq davrida yuqorida qayt etilganlar ya'ni, dunyoviy bilimlarga asos solgan allomalarimiz hayoti va ijodi, ularning ixtirolari haqidagi manbalar, axborotlarni xalqimizga ayniqsa, yoshlarga yetkazib bera olmadik. Bu borada Maskva tomonidan ma'qul darajada to'siqlar, cheklanishlar mavjud edi. Shuni ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida xususan, 2017 yilgacha hech qanday to'siqlar, chegaralanishlar yo'q davrda ham ilmiy tadqiqotlarning mamlakatni rivojlantirishdagi o'rniga, rivojlanishning asosiy lokamativi ekanligiga, qadr-qimmatiga yetarli darajada e'tibor berilmadi. O'zbekiston fanlar akademiyasi yo'qolish darajasiga kelib qolgan edi, ba'zi ilmiy tadqiqot institutlari tugatildi. O'zbek xalqining g'ururi olimu-allomalarining hayoti va ijodi, ularning ixtirolari haqidagi axborotlar matbuot, radio-televideniya qisman yoritilib berildi. Fikrimizcha, bu yetarli emas edi. Ular haqida yozilgan adabiyotlar yetarli nushada chop etilmaganligi sababli ommaning, yoshlarimizning talabini to'liq qondira olmadik. Bu borada rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasiga ham yetarli e'tibor berilmadi. Jumladan, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya, Singapur mamlakatlarining rivojlanish cho'qqisiga chiqqan yillar ilmiy tadqiqotlarga Davlat budjetidan yetarli miqdorda mablag'lar ajratilgan edi.

Respublikada ilmiy salohiyatni yanada oshirish, yoshlarni ilmiy tadqiqotga, yaqindan yangi ixtirolarni amalga oshirishga undash, o'zbek millatini ilm-fan sohasidagi buyuk allomalarning hayoti va ijodini yanada chuqurroq o'rganish, ularni xalqaro darajada targ'ibot qilish maqsadida o'z yo'nalishlari bo'yicha xalqaro fondlar hamda muzeylar tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Taklif sifatida, Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkilotchiligida Al-Xorazmiy xalqaro fondi va muzeyi O'zbekiston fanlar akademiyasining Matematika ilmiy tadqiqot institutida, Beruniy xalqaro fondi va muzeyi Urganch davlat universitetida, Abu Ali Ibn Sino xalqaro fondi va muzeyi Buxoro davlat tibbiyot institutida, M.Ulug'bek xalqaro fondi va muzeyi Samarqand davlat universiteti tarkibida shakllantirish mumkin.

Xalqaro fondlarning mablag' jihatdan shakllanishi ichki va tashqi tushumlardan iborat bo'ladi, ya'ni, Innovatsion rivojlanish vazirligidan, yo'nalishlar bo'yicha ilmiy tadqiqot institutlaridan, oliy ta'lim muassasalaridan, YUNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlardan, ixtiyoriy darajada tashkilotlar va jismoniy shaxslar hamda xorijiy mamlakatlardagi o'zbekistonlik fuqarolar hisobidan shakllantirish mumkin.

Fond mablag'laridan allomalarning hayoti va ijodi, ixtirolari natijalarini o'rganish, xorijiy mamlakatlardagi ularning qo'lyozmalarini olib kelish, bir necha tillarda tarjima qilib, yetarli nusxada chop etish, fundamental fan sifatida yo'nalishlar bo'yicha xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar, simpoziumlar o'tkazish va axborot disklari tayyorlanib, mamlakat hududida hamda xorijiy mamlakatlar ilm ahliga ulardan ommaviy targ'ibot uchun foydalanishga sarflanadi. Natijada, intellektual salohiyatga ega bo'lgan innovatsion faoliyat ko'rsatayotganlar uchun, ayniqsa, yoshlarimizni ma'lum darajada ilmiy tadqiqot ishlariga yanada ko'proq yo'naltirishga va buyuk allomalarimiz haqida xorijiy mamlakatlarda ham targ'ibot qilishga imkoniyat yaratiladi. Xar uch yilda bir marta matematika, tibbiyot, astranomiya kabi fundamental fanlarning muammolariga bag'ishlangan xalqaro anjumanlar Buxoroda tibbiyot yo'nalishida, Xorazmda matematika fanlari bo'yicha, Samarqanda astranomiya fanlari bo'yicha o'tkazilsa, jumladan dunyoning yetuk matematiklari, astronomiklari yig'iladi. Ushbu yo'nalishlar bo'yicha ular O'zbekistonda olib borilayotgan innovatsion faoliyat va erishilayotgan natijalar bilan tanishadilar. Biz esa ularning ilmiy faoliyatlari natijalarini bilib olamiz. Shuningdek o'zaro fikr almashish natijasida fundamental fanlarning yanada tezroq rivojlanishiga asos yaratiladi.

Moliyaviy ta'minotsiz innovatsion faoliyatni samarali amalga oshirib bo'lmaydi. Xorijiy mamlakatlar tajribasiga nazar solsak, mamlakatni innovatsion rivojlanishini ta'minlash uchun ilm-fanga davlat budjetidan eng kamida 2 va

undan ortiq foizda mablag' ajratilishi lozim ekan. Yaponiya, Janubiy Koriya, Germaniya, Fransiya kabi rivojlangan mamlakatlar 3-5 foiz mablag' ajratilgan yillari yuqori o'sish darajasiga erishganlar. O'zbekistonda 2017 yilgacha ushbu ko'rsatkich 0,3 foizga ham yetmas edi.

MUHOKAMA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ilmiy tadqiqot, innovatsion faoliyatga alohida e'tibor qaratib, o'z ma'ruzalarida innovatsion yondoshuvsiz, ilm-fan taraqqiyotisiz mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishini ta'minlab bo'lmasligini ta'kidlagan edilar. Keng qamrovli ziyoliy-olimlar muxokamasidan so'ng 2019 yil 29 oktabrda O'zbekiston Respublikasining "Iml-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunni hayotga tadbiiq qilishning amaliy jihatlarini ta'minlash maqsadida Fan va texnologiyalar bo'yicha respublika Kengashi tashkil qilindi. Ularni tashabbuslari bilan Fanlar akademiyasi va uning tarkibidagi Ilmiy tadqiqot institutlari yangi talablar asosida qayta shakllantirildi. Ushbu tizimdagi ilmiy muassasalar soni 20 tadan 35 taga yetkazildi. Xar yili amalga oshiriladigan akademiklikka saylanish jarayoni yana davom yettiriladigan bo'ldi. Akademiklar, ilmiy xodimlar moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirildi. O'tgan uch yil davomida ilmiy xodimlarni moddiy rag'batlantirish maqsadida ularning ish haqlari 3 barobar oshirildi. Ilmiy darajaga ega bo'lgan fan doktorlar va nomzodlari hamda o'z yo'nalishlari bo'yicha (PhD) doktorlari uchun alohida ustama haq belgilandi.

Mamlakat iqtisodiyotini jadal rivojlantirish, qisqa muddat ichida uni rivojlangan mamlakatlar darajasiga olib chiqish uchun innovatsiyani tub mohiyatini ochib bergan Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatnomasida "... biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz" deb ta'kidladilar. Mamlakatimizda 2023 yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb nomlashni taklif qilinganligi bejiz emas. Shundan kelib chiqib, ilm-fan hamda raqamli iqtisodiyot yo'nalishlariga yetarli miqdorda mablag' ajratiladi. Bir necha o'nlab Davlat dasturlari, fundamental amaliy loyihalarni bajarish vazifa qilib belgiladi. Shu o'rinda davlatimiz rahbarining "Mamlakatimiz uchun ilm-fan sohasidagi ustuvor yo'nalishlarni aniq belgilab olishimiz kerak. Xech bir davlat ilm-fanning barcha sohalarini bir yo'la taraqqiy ettira olmaydi. Shuning uchun biz har yili ilm-fanning bir nechta ustuvor yo'nalishini rivojlantirish tarafdorimiz" degan ko'rsatmalari barcha olimu-ziyoliylar innovatsion faoliyatlarida inobatga olishlari kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbuslari asosida Innovatsion vazirlik tashkil qilindi, qisqa vaqt ichida vazirlikning tashkiliy tizimi, tarkibi shakllantirildi, kerakli mutaxassislar bilan ta’minlandi. Vazirlik oldida innovatsion faoliyatni samarali tashkil qilish, ilm-fan yo‘nalishlarini koordinatsiya qilish, ularni o‘zaro bog‘liqligini baholash, buyurtmalarini talablar asosida ilmiy tadqiqot loyihalarini shakllantirish va moliyaviy resurslar bilan ta’minlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari muammolarining yechimini topishga ko‘proq investitsiya kiritish hamda innovatsion faoliyat natijalarini amalda keng qo‘llashni tashkil qilish, tadqiqotlar natijalarini tijoratlash kabi vazifalar qo‘yildi.

Albatta, innovatsion faoliyatni murakkab jarayonligini hisobga olsak, yuqorida qayt etilgan muammolarning samarali, oqilona va muqobil yechimini topish uchun yuqori intellektual salohiyatga ega bo‘lgan mutaxassis kadrlar kerak. Davlatimiz rahbari ushbu muammoga alohida e’tibor qaratib, Oliy Majlisga murojaatnomasida “... tashabbuskor islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog‘chadan boshlab, oliy o‘quv yurtigacha – ta’limning barcha bo‘g‘inlarini isloh qilishni boshladik”. Shuningdek, Murojaatnomada maktablarning o‘quv dasturlarini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, o‘quv yuklamalari va fanlarni qayta ko‘rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish, oliy ta’lim standartlarini xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o‘qitiladigan fanlarni qayta ko‘rib chiqish hamda mutaxassislikka aloqasi bo‘lmagan fanlar sonini 2 barobarga qisqartirish kabi vazifalar belgilab berildi.

Har bir oila o‘z farzandining kamolini ko‘rishni, hayotda o‘z o‘rnini topishi, baxtli-saodatli yashashini istaydi. Buning uchun esa ota-onalar farzandlarini ilmiy va ma’naviy jihatdan yetuk mutaxassis bo‘lishi, o‘z kasbiga ega bo‘lishi, vataniga, millatiga sodiq inson qilib tarbiyalashga xarakat qiladi – investitsiya kiritadi. Shu o‘rinda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Prezident maktabi faxriy mehmonlari kitobiga yozgan dastxatini eslab o‘tish joizdir: “... Yangi O‘zbekistonimizni yuksak taraqqiyot bosqichiga ko‘tarishdek ezgu niyatimizga yangicha va mustaqil fikrlaydigan, o‘z Vatanini jonidan ortiq sevadigan, uning yorug‘ kelajagi uchun sadoqat bilan xizmat qiladigan, fidoyi yoshlarni tarbiyalash orqali erishamiz”. Bugungi kunda aksariyat oilalarda topilgan daromadlarni urfi-odatlar, mintalitet deb yoki manmanlikga berilib katta-katta to‘y-xashamlarga, tadbirlarga sarflaydilar, farzandlarni qo‘shimcha o‘qitishga, bilimli, yuqori saviyali bo‘lishiga e’tibor berilmaydi. YA’ni, oila budjetidan samarali foydalanilmaydi, albatta bu salbiy xolatdir.

O‘zbekiston yoshlari – bolalarimizning ilmiy salohiyatga moyilligi, ongli tafakkuri va aql-idroki hamda fikrlashi boshqalarga nisbatan yuqori ekanligini alohida ta’kidlash mumkin. Buni butun dunyo tan olgan buyuk allomalarimiz yurti O‘zbekiston bo‘lganligi uchun nasliy omil desak xato bo‘lmaydi. Ushbu holatni mustaqillik yillarida yoshlarimiz xalqaro darajadagi ko‘plab tanlovlarda o‘zlarining yutuqlari bilan asoslab berdilar. Ayniqsa, fundamental fanlar – matematika, kimyo shuningdek, musiqa hamda sportning ko‘plab turlaridan jumladan, shaxmat kabi aqliy yo‘nalishlardan butun jahon olimpiadalarining sovrundorlari bo‘lishmoqda.

Birgini Buxoro viloyatining Qorako‘l tumanidagi matematika faniga ixtisoslashgan maktabdan oxirgi 20 yil ichida 37 tadan ortiq o‘quvchilar matematika fanidan jahon fan olimpiadasi sovrindorlari bo‘lishdi. Agar ushbu maktab murabbiylari moddiy va ma’naviy jihatdan rag‘batlantirilsa, ularning o‘quv-metodik hamda pedagogik mahoratlarini asos qilib barcha viloyatlarda tashkil qilinsa, fan sohasidagi olimpiada g‘oliblari yanada ko‘proq bo‘lard.

Ushbu ijobiy yutuqlar yaxshi, o‘zimizniki, lekin, yoshlarimizning intellektual salohiyatini ko‘rsatish borasida foydalanilmagan imkoniyatlarimiz, zaxiralarimiz ko‘p.

Zero, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2019 yilning 10 sentabr kuni Toshkent shahridagi Prezident maktabiga tashrifda chog‘ida pedagoglar bilan muloqotida “... men sizlarga eng katta boyligimni ishonib topshiryapman. Bolalarimizning ko‘zini, bilimini, g‘urur-iftixorini ko‘rib, yo‘limiz to‘g‘ri ekaniga ishonch hosil qildim. Islohotlarimizga, farzandlarimiz tarbiyasiga yelkadosh bo‘lganingiz uchun sizlarga minnatdorlik bildiraman” – deya ta’kidlagan edilar.

Aksariyat ota-onalar farzandlarining qabilyatidan, qaysi fanni yaxshi ko‘rishi, yaxshi o‘zlashtirishidan qat’iy nazar ularning kasb tanlashini cheklab qo‘yishadi. Farzandi fundamental fanni qiziqib, yaxshi o‘qib, o‘zlashtirgan bo‘lsa ham ba’zi ota-onalar o‘z farzandining qobilyatini, imkoniyatini inobatga olmasdan – sen huquqshunos yoki iqtisodchi yohud bojxona sohasidagi kasbga ega bo‘lasan deb bolaning taqdirini hal qilishadi. Bu albatta bolaning intellektual salohiyatidan amalda to‘liq foydalanish nuqtai nazaridan salbiy holatdir.

O‘zbekistonning, millatimizning kelajagini o‘ylab davlatimiz rahbari tashabbuslari bilan Prezident maktablari tashkil qilindi hamda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday tilak bildirdi: “Men ishonaman, bu maskanlar jonajon O‘zbekistonimizning ertangi taqdirini o‘z qo‘liga olishga, globallashuv davrida keskin bellashuv va raqobatlarida g‘olib bo‘lishga qodir shaxslarni – yangi Xorazmiylar, Farg‘oniylar, Beruniylar, Ulug‘beklarni tarbiyalab yetishtiradi”.

2019 yilning o‘zidayoq ana shunday 4 ta Prezident maktablari, 3 ta ijodiy maktablar tubdan yangi tashkil qilindi. Ushbu yangiliklar, yondoshuvlar O‘zbekiston tarixida birinchi marta amalga oshirildi. Prezident maktablariga qabul jarayonida xalqaro ekspert-mutaxassislar bilan shaffof o‘tkazilganini, bolalarimizga ularning bergan baholarini, ayniqsa ularni mamlakatimiz hududlarida tashkil qilinishi, qabul qilingan bolalar ota-onalarini televideniya orqali xursandchilik ko‘z yoshlari bilan Prezidentga aytgan so‘zlarini eshitgan har bir O‘zbekiston fuqarosi g‘ururlandi.

Strategiya nazariyasi fanida o‘z inersiyasi bilan rivojlanish salbiy holat deb hisoblanadi. Oxirgi uch yillik rivojlanishdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – hozirgi raqobatbardosh muhitda jadal, shiddatli rivojlanishni har bir iqtisodiyot tarmog‘i oldida vazifa qilib qo‘ydilar. Buning uchun esa innovatsion faoliyatni yanada kengroq amalga oshira oladigan intellektual salohiyatga ega kadrlar zarur.

Ushbu maqsadda qiyosiy tahlillar natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, dunyoda yahudiy millati intellektual salohiyat hamda aqliy mehnat faoliyati bo‘yicha yetakchi o‘rinlarni egallagan. Ular o‘z bolalarini yoshligidan shunga undaydi, ko‘proq aqliy mehnatga yo‘naltiradi, aql-miya faoliyatini rivojlantirish talablari asosida ovqatlanish ratsioniga alohida e‘tibor beradi, yoshlikdan chet tillarini o‘rgatadi.

XULOSA

Tan olish kerak, ushbu sohaga yetarlicha e‘tibor bermaymiz. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, jismoniy mehnat bilan shug‘ullanadiganlarning o‘zini ovqatlanish ratsioni, aqliy mehnat sohasida faoliyat ko‘rsatuvchilarning o‘z ratsioni bo‘lishi lozim. Buning uchun O‘zbekistonda boshqa mamlakatlarga nisbatan imkoniyatlar ko‘proq ya‘ni, intellektual salohiyatni oshirishga imkoniyat beruvchi oziq-ovqat ratsioni – yong‘oq, mayiz, asal, sarimsoq, tuxum, baliq kabi mahsulotlar o‘zimizda tabiiy sharoitda yetishtiriladi. Faqat, biz ota-onalardan, tarbiyachi-pedagoglardan talab – farzandlarimiz aql-zakovatini oshirishga yordam beradigan ovqatlanish ratsionidan foydalanishimiz lozim. Afsuski, biz ota-onalar bunga e‘tibor bermaymiz.

Ushbu muammolar yechimini topish uchun Innovatsion rivojlanish vazirligi, Maktabgacha ta‘lim vazirligi, Xalq ta‘limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi hamda Sog‘liqni saqlash vazirligi birgalikda matbuot va televideniya dan targ‘ibot uchun keng foydalangan holda tizimli faoliyat ko‘rsatsalargina Prezidentimiz kutgan, o‘zbek xalqi orzu qilgan marralarga erishishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi 464-I-son Qonuni / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son; 19.04.2018 y., 03/18/476/1087-son.
2. O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” 463-I-son / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiya prezidenti devoni xalq kutubxonasining tantanali ochilish marosimidagi nutqi // Xalq so‘zi. – T.: “Sharq” nashriyoti, 2020 yil 21 fevral, №38 (7540), 1 bet.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi. – T.: “Sharq” nashriyoti, 2020 yil 25 yanvar, №19 (7521), 2-4 betlar.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 31 yanvar kuni poytaxtimizning Olimlar ko‘chasidagi ilmiy-tadqiqot institutlariga tashrifi chog‘idagi nunqi // Xalq so‘zi. – T.: “Sharq” nashriyoti, 2020 yil 1 fevral, №24 (7526), 1 bet.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019 yil 10 sentabr kuni Toshkent shahrida ish boshlagan Prezident maktabiga tashrifi chog‘idagi nunqi // Xalq so‘zi. – T.: “Sharq” nashriyoti, 2019 yil 11 sentabr, №188 (7418), 1 bet.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-son Qonuni. www.lex.uz
8. Махмудов Н., Акабирова Д. Стратегия инновационного развития промышленности Республики Узбекистан в период модернизация экономика. Монография – Т.: «Иқтисодиёт» 2011 г. 331 стр.
9. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.

BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH: MAKROIQTISODIY YONDOSHUV

**ANALYSIS OF THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC
MECHANISMS OF ENSURING THE QUALITY OF ECONOMIC
GROWTH IN AGRICULTURE**

**АНАЛИЗ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ
МЕХАНИЗМОВ ОБЕСПЕЧЕНИЯ КАЧЕСТВА ЭКОНОМИЧЕСКОГО
РОСТА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ**

**QISHLOQ XO‘JALIGIDA IQTISODIY O‘SISH SIFATINI
TA‘MINLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI
TAHLILI**

Mamatov Mamajon Ahmadjonovich
Tashkent State University of Economics,
Associate Professor of the Department of Fundamental Economics,
Ph.D

mamatovahmadjon@rambler.ru

Jo‘rayev G‘ayrat Baxtiyor o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Yoshlar masalalari va ma‘naviy- ma‘rifiy ishlar departamenti tyutori
Jorayevgayratb97@gmail.com

Abstract. Each country ought to have an organizational and economic mechanism for implementing national strategies for the socio-economic development of regions and industries, at the same time this mechanism should include all levels and goals of the components of economic growth. State support for economic growth in agriculture is an important element of the organizational-economic mechanism. Therefore, in the article, we tried to propose our approach based on the analysis of theoretical approaches to the support of networks by the state. Indicators describing the result of the existing organizational-economic mechanism were evaluated during the research. It was found, all elements of the current organizational and economic mechanism of agricultural development are not being used rationally and efficiently to the maximum extent. The main contradictions in the implementation of the current organizational-economic mechanism were studied and suggestions were made to increase the effectiveness of their application in practice.

Keywords: economic growth, organizational-economic mechanism.

Аннотация. Каждая страна должна иметь организационно-экономический механизм реализации национальных стратегий социально-экономического развития регионов и отраслей, при этом этот механизм должен включать все уровни и цели составляющих экономического роста. Государственная поддержка экономического роста в сельском хозяйстве является важным элементом организационно-экономического механизма. Поэтому в статье мы попытались предложить свой подход, основанный на анализе теоретических подходов к поддержке сетей государством. В ходе исследования были оценены показатели, характеризующие результат существующего организационно-экономического механизма. Установлено, что все элементы действующего организационно-экономического механизма развития сельского хозяйства не используются в максимальной степени рационально и эффективно. Изучены основные противоречия в реализации действующего организационно-экономического механизма и высказаны предложения по повышению эффективности их применения на практике.

Ключевые слова: экономический рост, организационно-экономический механизм.

With regard to the various risk management practices adopted by the insurance company, the study found that risk identification contributes the most to the financial performance of Uzbekinvest insurance company followed by risk

mitigation, risk management program implementation & monitoring and risk assessment & measurement in that order. At 5% level of significance and 95% level of confidence, risk identification, risk mitigation, risk management program implementation & monitoring and risk assessment & measurement all significantly influenced the financial performance of insurance company.

CONCLUSIONS AND RECOMMENDATIONS

Summary of Findings

Company had adopted the four risk management practices that were the focus of this study. Of the four risk management practices, risk identification was found to be the most significant in influencing financial performance with a unit increase in risk identification leading to a 0.668 increase in financial performance.

A unit increase in risk management implementation and monitoring led to an increase of 0.398 in financial performance with risk assessment and measurement having the least influence on the companies' financial performance, at 0.348 increases in financial performance for a unit increase in risk assessment and measurement.

Generally, from the results of this study, adoption of risk management practices was found to have a significant influence on the financial performance of insurance companies, as explained by an R² of 71.6%. This implies that better risk management by company leads to improved financial performance.

Conclusion

The study concludes that risk identification and mitigation play the most significant role in influencing financial performance of insurance company. Hence, risk identification can essentially be said to be the key starting point of any risk management program as companies cannot manage what is unknown.

The study results, also show that all the four risk management practices were of some significance in influencing financial performance and hence the conclusion of this study is that insurance company need to adopt a multifaceted approach in their risk management efforts that includes all the practices that were the focus of this study in order to realize the full benefits of their risk management programs.

Therefore, concludes that there is a strong relationship between adoption of risk management practices and financial performance of company under investigation. The study further concludes that there are other factors that influence financial performance of insurance company and that this explain the remaining 28.4% of the variation in financial performance of the company

Recommendation for policy implication

From the project, risk identification and mitigation were found to have a huge impact on the financial performance of insurance company. The study therefore recommends that the management of insurance company should put in place cost-effective measures for timely risk identification and effective risk

mitigation so as to ensure that their financial performance is not impacted negatively.

The study also recommends that the management of insurance company should continuously assess their risk management practices to see if they are still practical in the face of a continuously changing operating environment, for instance the new regulatory pressures of solvency 2 and Basel regulatory regimes.

Lastly, the study recommends that the management of insurance company should put in place risk management frameworks conform to international best practice. This will ensure that Uzbekinvest insurance company achieve international standards and, therefore, become globally competitive.

REFERENCES

1. Froot, K., Scharfstein, D. & Stein, J. (1993). A Framework for Risk Management, *Journal of Applied Corporate Finance*, 7, 22-32.
2. Gold, G. (1999). The Valuation of Risk Assets and the Selection of Risky Investments in Stock Portfolios and Capital Budgets. *Review of Economics and Statistics*, 47 (1), 13-37.
3. Iqbal Z. & Mirakhor A. (2007). *An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice*, 2nd Edition.
4. Kadi, A.M. (2003). Basic Conditions and Procedures in Insurance. *The Accountant*, 13 (3), 16-19.
5. Magezi, J.K. (2003). A New Framework for Measuring the Credit Risk of a Portfolio. *Institute for Monetary and Economic Studies (IMES)*, 1-45.
6. Merton, R.C. (1995). A Functional Perspective of Financial Intermediation, *Financial Management Journal*, 24 (2), 23-41.
7. Mikes A. & R.S Kaplan. (2014). Towards a contingency. *Theory of Enterprise Risk Management*. Working Paper 13-063.
8. Pagach, D. P. & Warr, R.S. (2010). The Effects of Enterprise Risk Management on Firm Performance. Available at SSRN: <http://ssrn.com/abstract=1155218>.
9. Pagano, M.S. (2001). How Theories of Financial Intermediation and Corporate Risk-Management Influence Bank Risk-taking Behavior, *Financial Markets, Institutions and Instruments*, 10 (5), 277-323.
10. Warner, J. (1977). Bankruptcy Costs: Some Evidence. *Journal of Finance*. 32, 337-347.
11. Weiss, L. (1990). Bankruptcy Resolution: Direct Costs and Violation of Priority Claims. *Journal of Finance and Economics*, 27, 285-314.

INSON RESURSLARINI BOSHQARISH, IJTIMOIIY SIYOSAT VA BANDLIK

**REKRUTING AGENTLIKLARI FAOLIYATINING TASHKILIY-
IQTISODIY ASOSLARI**

**ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КАДРОВЫХ АГЕНТСТВ**

**ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC BASIS OF THE ACTIVITY OF
RECRUITING AGENCIES**

Sherkulova Nodirabegim Baxordin qizi
Alfraganus Universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola yozish davomida rekruting agentliklarining tashkiliy-iqtisodiy asoslari o‘rganildi. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi “Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlar asos qilib olindi. Bizningcha, tadqiqot natijalari bo‘yicha rekruting agentliklari xizmatlari sohalar kesimida afzalliklarga ega ekanligini aniqlashdan iborat.

Kalit so‘zlar: bandlik, bozor iqtisodiyoti, tarmoqlardagi foyda meyori, rekruting agentliklari, mehnat bozori, jahon banki.

Аннотация. В ходе написания данной статьи были изучены организационно-экономические основы рекрутинговых агентств. В связи с этим Указ Президента Республики Узбекистан от 24 мая 2017 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию государственной политики в сфере занятости и кардинальному повышению эффективности работы органов труда», Постановление За основу взяты Постановление Президента Республики Узбекистан от 24 марта 2017 года «Меры по организации деятельности Министерства занятости и трудовых отношений Республики Узбекистан» по проведению мероприятий» и другие нормативные правовые документы. По нашему мнению, результаты исследования призваны определить, что услуги рекрутинговых агентств имеют преимущества в срезе отраслей.

Ключевые слова: занятость, рыночная экономика, норма прибыли в отраслях, кадровые агентства, рынок труда, Всемирный банк.

Annotation. During the writing of this article, the organizational and economic basis of recruiting agencies was studied. In this regard, the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated May 24, 2017 "On measures to further improve the state policy in the field of employment and to fundamentally increase the efficiency of the work of labor bodies", the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated March 24, 2017 "Measures to organize the activities of the Ministry of Employment and Labor Relations of the Republic of Uzbekistan" on events" and other regulatory legal documents were taken as a basis. In our opinion, the results of the research are to determine that the services of recruiting agencies have advantages in a cross-section of industries.

Key words: employment, market economy, rate of profit in industries, recruiting agencies, labor market, world bank.

KIRISH

Xalqaro Mehnat Tashkiloti jahonda aholini xususiy bandlik agentliklari orqali ishga jalb qilishning zarurligini anglagan holda 1997 yil 3 iyunda № 181 son "Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida"gi Konvensiya va Xalqaro Mehnat Tashkilotining № 188-Tavsiyalarini qabul qildi. Mazkur hujjatlar mehnat bozorida xususiy bandlik agentliklarining xodimlar uchun mehnat faoliyatida teng imkoniyatlar yaratish, tashkiliy jihatdan boshqarish, xalqaro maydonda xodimlar va ish beruvchilar manfaatlarining mutanosibligini ta'minlashga asos bo'ldi. "Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida"gi Konvensiyaga binoan, nodavlat ish bilan bandlik organlari ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, ish beruvchilar va ish qidirayotgan shaxslarga maslahatlar berish, ish joylari haqida umumiy ma'lumotlarni umumlashtirib, davlat organlaridan mustaqil bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxslardir. Konvensiyada rekruting agentliklarining faoliyati davlat tomonidan tegishli tartibda nazorat qilinishi belgilab qo'yilgan. Xalqaro miqyosida xususiy bandlik agentliklari tomonidan mehnatni tartibga solish va ishga joylashtirish yuqorida qayd etilgan huquqiy xujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Bu borada Xalqaro Mehnat Tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan Konvensiyalarni e'tirof etish mumkin, jumladan, 1933 yilgi Jeneva sessiyasida "Davlat organlarining nodavlat ish bilan bandlik tuzilmalari bo'yicha munosabatini belgilab beruvchi pullik ishga yollash byurolari to'g'risida"gi 34-sonli Konvensiya qabul qilingan. Unda pullik ishga yollash bo'yicha byurolarga quyidagilar kiritilgan:

- tijorat maqsadiga ega bo'lgan ishga yollash byurolari – ishchidan yoki ish beruvchidan bevosita yoki bilvosita daromad olish maqsadida vositachilik xizmatlari;

- tijorat maqsadiga ega bo'lmagan ishga yollash byurolari – daromad olishga yo'naltirilmagan, ish beruvchilardan yoki ishchilardan xizmat ko'rsatgani uchun boshlang'ich yoki davriy badal yoki har qanday boshqa yig'im hisobiga faoliyat yurituvchi har qanday kompaniya, tashkilot, agentlik va boshqa tashkilotlarning ishga yollash bo'yicha xizmatlari hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Mehnat bozorida barcha ish bilan bandlik xizmatlari turli xil korxonalar va firmalar bilan qandaydir malaka belgilari bo'yicha faoliyat olib boradilar. Ish beruvchilar va yollanma ishchilar o'rtasida kadrlar agentligi vositachi sifatida mehnat bozorida muhim ahamiyatga ega. Rekruting agentliklari tomonidan nomzodlarni ishga yollashda ish beruvchining talablari asosida amalga oshiriladi. Quyida rekruting agentliklarining ish beruvchi bilan ishga yollash ketma-ketligi berilgan (1.2-rasm).

Rekruting agentliklari faoliyatining aholini ish bilan


ta'minlashdagi ahamiyatini inobatga olib, "Xususiyl bandlik agentliklari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan kiritildi.

Ushbu qonun loyihasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 fevraldagi "2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliyl chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoyishi bilan tasdiqlangan. "2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ning 207-bandiga muvofiq, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" qaroriga asosan ishlab chiqilgan.(1.2-rasm)

Rekruting agentliklarining va aholi bandlikka ko'maklashish markazlari faoliyatining aholini bandligini ta'minlashdagi hamkorligining asosiy yo'nalishlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari iqtisodchi olimlar va ilmiyl tadqiqotchilar tomonidan ko'rsatib o'rganilmaganligi sababli, ilmiyl ishda mualliflik qiyosiy tahlillarimizni tavsiya etdik.

Hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning markazida aholi bandligi muammosiga alohida e'tibor qaratilayotganining o'zi ham davlat va nodavlat bandlik xizmatlarining faoliyatida kamchiliklar borligidan dalolat beradi. Shu maqsadda davlat va nodavlat bandlik xizmatlari faoliyati bir

mamlakat yoki hudud doirasida amalga oshiriladi. Keyingi paytlarda rekruting agentliklari xizmatlari faoliyatidagi negativ holatlar va ularning oqibatlari to‘g‘risida ommaviy axborot vositalari orqali ma’lumotlarga ega bo‘lmoqdamiz.



1.2-rasm. Nomzodni ishga yollash bosqichlari


ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

2018 yil 16 oktabrda O‘RQ-501-son “Xususiy bandlik agentliklari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Aholi ish bilan bandligini xususiy bandlik agentliklari ta’minlashi milliy mehnat bozori uchun yangi jarayon bo‘lib, agentliklar milliy mehnat bozoridagi barcha bandlik infratuzilmalari bilan faol hamkorlik zarur hollarda raqobatlashishi muhim hisoblanadi. O‘zbekistonda rekruting agentliklari va aholi bandlikka ko‘maklashish markazlarining faoliyati hamkorlik generatsiyasi mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta’minlashga qo‘shayotgan obyektiv hissasini chuqur tahlil etish va ish bilan bandlikning manfaatli kesishuv nuqtalarini aniqlash imkonini beradi (1.3-rasm).

Mazkur tashkiliy tuzilmalarning o‘zaro hamkorlik yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

xizmat ko‘rsatish muddatini qisqartirish va xizmat sifatini oshirish maqsadida rekruting agentliklari va aholi faoliyatida umumiy atamalardan foydalanish;

rekruting agentliklariga aholi ish bilan bandligini ta’minlashda davlat bandlik dasturlarida tanlov asosida qatnashish imkoniyatini berish;



1.3-rasm. Rekruting agentliklari va aholi bandlikka ko'maklashish markazlarining aholi ish bilan bandligi xizmatlarining hamkorlik generatsiyasi tizimi

Respublikaning bandlik ko'rsatkichlarini monitoring qilish, ichki va tashqi mehnat bozorida yuqori daromadli vakansiyalarni topish borasida rekruting agentliklari va aholi bandlikka ko'maklashish markazlari strategik rejalar ishlab chiqishdan iborat.

Rekruting agentliklarining va aholi bandlikka ko'maklashish markazlari faoliyatining aholini bandligini ta'minlashdagi hamkorligining asosiy yo'nalishlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari iqtisodchi olimlar va ilmiy tadqiqotchilar tomonidan ko'rsatib o'rganilmaganligi sababli, ilmiy ishda mualliflik qiyosiy tahlillarimizni tavsiya etdik.

NATIJA

Hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning markazida aholi bandligi muammosiga alohida e'tibor qaratilayotganining o'zi ham davlat va nodavlat bandlik xizmatlarining faoliyatida kamchiliklar borligidan dalolat beradi. Shu maqsadda davlat va nodavlat bandlik xizmatlari faoliyati bir mamlakat yoki hudud doirasida amalga oshiriladi. Keyingi paytlarda rekruting agentliklari xizmatlari faoliyatidagi negativ holatlar va ularning oqibatlari to'g'risida ommaviy axborot vositalari orqali ma'lumotlarga ega bo'lmoqdamiz.

Shu o'rinda, mazkur mualliflik ishlanmasida davlat bandlik xizmatlari va rekruting agentliklari xizmatlarining aholini ish bilan bandligi tizimidagi yagona maqsadlari bilan birga, o'ziga xos xususiyatlarining faoliyat natijalari o'rganildi.

Jamiyatda har qanday yangilikning ijtimoiylashuvi qaysi darajada bo'lishidan qat'iy nazar, qiyin kechadi. Shu nuqtai nazardan rekruting agentliklari xizmatlari faoliyatiga, qator ijobiy natijalariga baho berishda subyektiv qarashlarga e'tibor qaratilmoqda. Binobarin, hududlarda davlat hokimiyati boshqaruv organlari tomonidan aholining ish bilan bandligi muammosi eng asosiy muammolardan biri ekanligini bila turib, rekruting agentliklari xizmatlariga, boshqa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga nisbatan ham past e'tiborda bo'linmoqda. Aynan mazkur holatning mavjudligi joylarda aholi bandligiga ko'maklashish markazlari oldida yechimini kutayotgan muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Bugungi kunda aholi ish bilan bandligini oshirishning tashkiliy mexanizmlari ish bilan bandlikning yangi shakllarini joriy etish chora-tadbirlarini belgilab beradi va ish bilan bandlikning turli shakllarini rivojlantirishning hududlarni o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, dasturlar ishlab chiqishga asos bo'ladi.

Olib borilgan tadqiqotlar davomida rekruting agentliklarining tashkiliy-iqtisodiy asoslari o'rganildi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish

va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 martdagi "O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlar asos qilib olindi. Bizningcha, tadqiqot natijalari bo'yicha rekruting agentliklari xizmatlari sohalar kesimida quyidagi afzalliklarga ega. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 6 maydagi "Aholi bandligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijadorligi va samaradorligini oshirishda mahalliy ijro hokimiyati va iqtisodiy kompleksning hududiy organlari rahbarlarining shaxsiy mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2960-sonli Qaroriga asosan, yangi ish o'rinlarini tashkil etish, iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari hamda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishda ularga amaliy yordamlar ko'rsatish bo'yicha aniq yo'naltirilgan va tizimli ishlar olib borishda mahalliy ijro hokimiyati va iqtisodiy kompleksning hududiy organlari rahbarlarining shaxsiy mas'uliyatini kuchaytirish belgilangan.

Mazkur qarorda mahalliy ijro hokimiyati rahbarlari va iqtisodiy kompleksning hududiy organlari rahbarlarini aholi bandligini oshirish uchun moddiy rag'batlantirish va shaxsiy mas'uliyatini kuchaytirish tizimini joriy etish ko'zda tutilgan.

Ish bilan bandlik sohasini takomillashtirishga va mustahkamlashga qaratilgan xalqaro va mamlakatimizdagi huquqiy-meyoriy asoslarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq (1.2-jadval). Jadvalda xalqaro huquqiy - meyoriy hujjatlar va O'zbekiston Respublikasidagi huquqiy-meyoriy hujjatlar solishtirma tahlil qilingan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 6 maydagi "Aholi bandligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijadorligi va samaradorligini oshirishda mahalliy ijro hokimiyati va iqtisodiy kompleksning hududiy organlari rahbarlarining shaxsiy mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2960-sonli Qaroriga asosan, yangi ish o'rinlarini tashkil etish, iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari hamda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishda ularga amaliy yordamlar ko'rsatish bo'yicha aniq yo'naltirilgan va tizimli ishlar olib borishda mahalliy ijro hokimiyati va iqtisodiy kompleksning hududiy organlari rahbarlarining shaxsiy mas'uliyatini kuchaytirish belgilangan.

Mazkur qarorda mahalliy ijro hokimiyati rahbarlari va iqtisodiy kompleksning hududiy organlari rahbarlarini aholi bandligini oshirish uchun moddiy rag'batlantirish va shaxsiy mas'uliyatini kuchaytirish tizimini joriy etish ko'zda tutilgan.

Ish bilan bandlik sohasini takomillashtirishga qaratilgan xalqaro va mamlakatimizdagi huquqiy-meyoriy hujjatlar

1.2-jadval

Xalqaro huquqiy-meyoriy hujjatlar	O‘zbekiston Respublikasidagi huquqiy-meyoriy hujjatlar
Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 1948 yil	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yildagi 28 aprel PQ-5094-son “2021 yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandlikka ko‘maklashish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida”gi qarori
Davlat organlarining nodavlat ish bilan bandlik tuzilmalari bo‘yicha munosabatini belgilab beruvchi pullik ishga yollash byurolari to‘g‘risidagi XMT ning 34-sonli Konvensiyasi	Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-5052-sonli Farmoni
Davlat ish bilan bandlik xizmati faoliyatining tartiblari, XMTning 88-sonli Konvensiya	2020 yil 20 oktabrdagi O‘RQ-642-son “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonun
№181 “Xususiy bandlik agentliklari to‘g‘risida”gi Konvensiya, № 188 “Xususiy bandlik agentliklari” Tavsiyanoma	“Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risi”da Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 10 iyuldagi 482-son qaroriga 2-ilova
“Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Yevropa Konvensiyasi, 1990 yil	“Xususiy bandlik agentliklari to‘g‘risida”gi 2018 yil 16 oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Qonuni
Majburiy mehnat to‘g‘risida Konvensiya (S29) - 13.07.1992 yil	2020 yil 26 martdagi PF-5975-son “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon
Ishga olishda minimal yosh haqida Konvensiya (S138) – 03.2008 yil	“Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora – tadbirlari to‘g‘risida” 15 sentabr PQ-4828-sonli qaror
Ish bilan bandlik xizmati tashkilotlari to‘g‘risida va ish bilan bandlik xizmati to‘g‘risida 72-83 sonli XMT tavsiyanomalari	“Mehnat organlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 8 sentabrdagi qarori

MUHOKAMA

Ish bilan bandlik sohasini takomillashtirishga va mustahkamlashga qaratilgan xalqaro va mamlakatimizdagi huquqiy-meyoriy asoslarga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq (1.2-jadval). Jadvalda xalqaro huquqiy - meyoriy hujjatlar va O‘zbekiston Respublikasidagi huquqiy-meyoriy hujjatlar solishtirma

tahlil qilingan.

Olib borilgan tadqiqotlar davomida rekruting agentliklarining tashkiliy-iqtisodiy asoslari o'rganildi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 martdagi "O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlar asos qilib olindi. Bizningcha, tadqiqot natijalari bo'yicha rekruting agentliklari xizmatlari sohalar kesimida quyidagi afzalliklarga ega

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shu o'rinda izlanish davomida rekruting agentliklari faoliyatini rivojlantirish natijasida aholi ish bilan bandligini oshirishning bir nechta xizmat yo'nalishlarini keltirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- rekruting agentliklarining milliy mehnat bozorini puxta tahlil qilishda, hududlar aholi bandligini ta'minlashga doir hududiy va tarmoq dasturlarining bajarilishida ishtirok etishi;

- rekruting agentliklarining aholining zaif qatlamini ishga joylashtirishda, aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan kompleks chora- tadbirlarni amalga oshirishda, mehnat organlariga murojaat qilgan ishsizlarni qisqa muddatlarda ishga joylashtirishda ishtirok etishi;

Olib borilgan tadqiqotlar davomida rekruting agentliklarining tashkiliy-iqtisodiy asoslari o'rganildi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 martdagi "O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlar asos qilib olindi. Bizningcha, tadqiqot natijalari bo'yicha rekruting agentliklari xizmatlari sohalar kesimida quyidagi afzalliklarga ega Rekruting agentliklarining sohalar kesimidagi afzalliklari

- rekruting agentliklarining ishga muhtoj shaxslarni, ayniqsa yoshlarni iqtisodiyot tarmoqlari va mehnat bozorining real ehtiyojlaridan kelib chiqib kasbga tayyorlashda, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda ishtirok etishi;

- rekruting agentliklarining bandlikka ko'maklashish bo'yicha xizmatlar bozorida aholi bandlikka ko'maklashish markazlari bilan raqobat muhitida xizmat ko'rsatishi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, ta'lim muassasalari,

nodavlat notijorat tashkilotlari, tadbirkorlik subyektlari, jamoatchilikning aholi bandligini ta'minlash masalalari bo'yicha hamkorligini amalga oshirish;

- rekruting agentliklarining tashqi mehnat migratsiyasini tahlil qilish, shu asosda mehnat migratsiyasi sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqishda ishtirok etishi, tashqi mehnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarni ishga joylashtirishga ko'maklashish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. constitution.uz/uz
2. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. <https://lex.uz/acts/142859>
3. O'zbekiston Respublikasining "Aholi bandligi to'g'risidagi" gi Qonuni. (yangi tahrirda). <https://lex.uz/docs/5055690>.
4. Abdurakhmanov K. Labour Economics. Theory and practice. Scientific Publishing House IVG. 2020 by GB Global Business LTD in London, United Kingdom. 2020. 615p
5. Аникин Б.А. Аутсорсинг и аутстаффинг: высокие технологии менеджмента: учеб. Пособие / Б.А. Аникин, И.Л. Рудая. 2-е изд., перераб. и доп. - Москва: Инфра-М, 2009. 320 с.
6. Базжина.В.А. Формирования механизмов координатсии деятельности субъектов рынка рекрутинговых услуг. Автореферат. Санкт Петербург . 2007. – 21 с.
7. Вахабов А., Хажибакйев Sh. Taraqqiy etgan mamlakatlarda mehnat bozorining rivojlanishi va aholi bandligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari. – T.: Moliya. № 5 2015. - 122 B

**TARMOQLAR IQTISODIYOTI VA REAL SEKTORNI KOMPLEKS
RIVOJLANTIRISH**

**MAMLAKATIMIZDA AGRAR SOHANI DAVLAT TOMONIDAN
QO‘LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

**ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ
ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОДДЕРЖКИ АГРАРНОГО СЕКТОРА В
НАШЕЙ СТРАНЕ**

**WAYS TO IMPROVE THE MECHANISMS OF STATE SUPPORT
FOR THE AGRICULTURAL SECTOR IN OUR COUNTRY**

**TOPILDIYEV SOXIBJON RAXIMJONOVICH
DOTSENT, TDIU**

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimiz agrar sektoriga investitsiyalarni jalb etish hamda agrar sohada investitsiya siyosatini belgilovchi o‘ziga xos xususiyatlar va omillar keltirilgan. Shu bilan birga xorijiy investitsiyalarni sohaga jalb qilish bo‘yicha asosiy xorijiy hamkor davlatlar va O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘zlashtirilish yo‘llari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Strategiya, infratuzilma, qishloq xo‘jaligi, fermer xo‘jalik, kredit, agrar, loyiha, texnika.

Аннотация. В данной статье представлены особенности и факторы, определяющие привлечение инвестиций в аграрный сектор страны и инвестиционную политику в аграрный сектор. При этом выделены основные зарубежные партнеры по привлечению иностранных инвестиций в сектор и пути развития инвестиций в основной капитал для сельского хозяйства в Узбекистане.

Ключевые слова: стратегия, инфраструктура, сельское хозяйство, сельское хозяйство, кредит, аграрный, проект, техника.

Annotation

This article presents the features and factors that determine the attraction of investments into the agricultural sector of the country and the investment policy in the agricultural sector. Thus the main foreign partners on attraction of foreign investments into the sector and ways of development of investments into fixed capital for agriculture in Uzbekistan are allocated.

Keywords: strategy, infrastructure, agriculture, agriculture, credit, agrarian, project, machinery.

KIRISH

Agrar sohaning barqaror rivojlanishiga erishish uchun xo‘jaliklarning investitsion salohiyatini shakllantirish, ularni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish talab etiladi.

Buning uchun esa tarmoqning investitsiya salohiyatini rivojlantirish, investitsion muhit jozibadorligini oshirish, tavakkalchilik xavf-xatarlarini pasaytirish mexanizmini o‘zida mujassamlashtirgan agrar investitsiya siyosati ishlab chiqilmog‘i lozim.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasida “...hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish” vazifa qilib belgilangan.

Investitsiya faolligini oshirishda ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy-tashkiliy-huquqiy va boshqa omillar bevosita bu soha ishlab chiqaruvchilari uchun qulay investitsiya muhitini shakllanishiga mos bo‘lishi kerak.

Qishloq xo‘jaligida investitsiya faolligini oshirish uchun quyidagi vazifalar hal etilishi talab qilanadi:

- qishloq xo‘jaligiga investitsiyalarni jalb etishni taminlaydigan institutsional bozor infratuzilmasi subyektlarini rivojlantirish;

- hududlarda aholi, dehqon va fermer xo‘jaliklari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ishlab chiqarish investitsiyasiga kapital mablag‘larni tashkil etish va yo‘naltirish bilan shug‘ullanuvchi investitsion bozorlarni shakllantirish;

- qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi bank tizimi faoliyatini rivojlantirish va ularning kapitallashuv darajasini oshirish;

- investitsiyalarni jalb etishning tashkiliy shakllarini takomillashtirish;

- qishloq xo‘jaligida investitsion loyihalarni amalga oshirishda davlat va investorlarning ularni asoslash va qabul qilishdagi ishtirokini takomillashtirish;

- investitsiya jarayonini axborot–maslahat va marketing xizmatlari bilan taminlanishini tashkil etish kabilar.

METODLAR

Agrar sohaga investitsiyalarni jalb etishda, qishloq xo‘jalik subyektlarining moliyaviy holati, xatarning yuqoriligi sharoitida, ularning asosiy ishlab chiqarish fondlarining natija va samara berish muddatlarining uzoq davrni qamrab olishi bevosita investitsiya mexanizmini: ichki va tashqi investitsiyalar manbalarini kafolat zahiralarini jamg‘arish tizimi bilan mustahkam bog‘lovchi tizimini vujudga keltirishni toqozo etadi.

Asosan investorlardan foydalanuvchi qishloq xo‘jalik subyektlari, qishloq xo‘jaligiga xom-ashyo, texnika asbob-uskunalar yetkazib beruvchi (loyihani moddiy-texnikaviy ta‘minlovchi) lar o‘rtasida o‘zaro kafolatlarni amalga oshirish

tizimi davlat tashkilotlari va tijorat banklari tomonidan amalga oshirilmog‘i lozim.

Ular bir vaqtning o‘zida kreditlarni kafolati va investitsiyalarni qaytmaslik xatarini kafolatini ta‘minlashi kerak. Qishloq xo‘jaligida asosiy fondlarni investitsiya mexanizmi ularni takror ishlab chiqarishni uzluksiz va barqarorligini ta‘minlanadi, shu bilan birga agrar sohaga jalb etilgan investitsiyalardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Agrar sohada investitsiya siyosatini belgilovchi o‘ziga xos xususiyatlar va omillar bevosita miqdor ko‘rsatkichlaridan sifat ko‘rsatkichlariga o‘tishi, ya‘ni, yuqori samara beradigan va ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘nalishlariga investitsiyalarni jalb etishni taqozo qiladi.

2017 yilda Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun Xalqaro moliya institutlari mablag‘larini jalb etildi:

- Osiyo taraqqiyot bankining 150,0 mln. dollar mablag‘ini «Qishloq xo‘jaligini ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish» loyihasiga;

- xalqaro taraqqiyot va tiklanish bankining 150,0 mln. dollar mablag‘ini «Chorvachilik sektorini rivojlantirish» loyihasiga;

- xalqaro qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti jamg‘armasining 23,8 mln. dollar mablag‘ini «Qashqadaryo va Jizzax viloyatlarida sut mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish va qayta ishlashni rivojlantirish» loyihasiga;

- xalqaro taraqqiyot uyushmasining 14,0 mln. dollar mablag‘ini «Orol bo‘yi mintaqasida iqlim o‘zgarishga moslashish va oqibatlarini yumshatish» loyihasiga jalb etildi.

2019 yil davomida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalarni o‘zlashtirish hajmi 220,7 trln. so‘mga yetkazilib, tasdiqlangan yil prognoziga nisbatan 2 barobarga o‘sdi. Shu o‘rinda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 189,9 trln. so‘mni, 2018 yil ko‘rsatkichlariga nisbatan o‘sish tempi esa 1,3 barobarni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2018 yilda 30 foizdan amaldagi 36,2 foizga qadar o‘sdi, ya‘ni umumiy investitsiyalar xajmining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2019 yil natijalari bilan 42,1% tashkil etdi.

Hozirgi vaqtda ijtimoiy va infratuzilma obyektlarini 2,8 mingtasi ijtimoiy, infratuzilma va ishlab chiqarish obyektlari foydalanishga topshirildi. 145 ta yirik ishlab chiqarish obyektlari, 167 ta yirik hududiy loyihalar, 2,5 mingdan ziyod ijtimoiy va infratuzilma obyektlari faoliyat olib bormoqda.

Investitsiya faoliyatining sezilarli o‘sishi 13,3 mlrd. dollarni tashkil etgan xorijiy investitsiyalarning oqimi va o‘zlashtirilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, unda:

- to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar – 9,3 mlrd. dollar (shundan asosiy kapitalga – 6,6 mlrd. doll.);

- davlat kafolati ostidagi xorijiy investitsiyalar va kreditlar – 4,0 mlrd. dollar (shundan asosiy kapitalga – 3,2 mlrd dollar) o‘zlashtirildi.

Bunda o'zlashtirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarning umumiy investitsiyadagi ulushi 37 foizga yetkazilgan bo'lsa 2018 yilda bu ko'rsatkich 10,5%ni tashkil etgan.

NATIJA

BMTning Savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasining (YUNKTAD) hisobotiga ko'ra, jahon miqyosida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi ketma-ket uchinchi yil pasayib, global moliyaviy inqirozdan so'ng darhol kuzatilgan eng past darajaga yetdi. 2017 yilda – 16% ga kamaygan bo'lsa 2019 yil 1 yanvar holatiga bu ko'rsatkich 19 %ga kamaygan.

Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha YUNKTADning hisobotiga ko'ra, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining ijobiy o'sishi Osiyoda kuzatilib, uning hajmi 5%ga o'sdi. Shu o'rinda Markaziy Osiyo mamlakatlarida xorijiy investitsiyalarning o'sishi o'rtacha 8-10 %ni tashkil etgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasida bu ko'rsatkich 2019 yilning shu davriga 2,9 mlrd.dollar, shundan asosiy kapitalga – 1,6 mlrd. dollarni tashkil etib o'tgan yilga nisbatan 3,2 barobarga 9,3 mlrd dollar, shundan asosiy kapitalga – 6.6 mlrd dollarga o'sdi. Bu esa Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida o'sish sur'atlari bo'yicha respublikamiz yetakchilikni ta'minladi.

Xorijiy investitsiyalarni respublikaga jalb qilish bo'yicha asosiy xorijiy hamkorlar sifatida Xitoy, Rossiya va Germaniyani e'tirof etish mumkin, shu bilan birga O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiya kiritadigan davlatlar umumiy soni 50 tadan oshdi. Natijada yirik investor-davlatlarning umumiy jalb qilinayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlardagi ulushi 34%gacha qisqardi.

2019 yil ko'rsatkichlariga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb qilishning faol o'sishi to'qimachilik sanoatida o'sish – 2,5 barobarni, charm-poyabzal o'sish – 2,1 barobarga oshganligini e'tirof etish lozim.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar oqimining o'sish sur'ati hududiy ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarda ham mustahkamlanib borib, ularning umumiy hajmi 2019 yilda 4,8 mlrd dollar shundan asosiy kapitalda – 4,2 mlrd dollarni tashkil etgan.

2020 yil va undan keyingi yillarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni faol jalb qilish, ularni qishloq xo'jaligi va sanoat korxonalarida tayyor mahsulot ishlab chiqarish kabi ustuvor yo'nalishlarda sohadagi loyihalarni amalga oshirish orqali ularning yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish ishlari amalga oshirilmoqda.

Agrar sohada investitsiya siyosatini belgilovchi o'ziga xos xususiyatlar va omillar bevosita miqdor ko'rsatkichlaridan sifat ko'rsatkichlariga o'tishi, ya'ni, yuqori samara beradigan va ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlariga investitsiyalarni jalb etishni taqoz qiladi.

Yuqoridagilarga muvofiq, 2016-2020 yillarda meva-sabzavotlarni qayta ishlash bo'yicha quvvati 99 100 tonnaga teng 138 ta, go'sht mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha quvvati 16 500 tonnaga teng 46 ta, sut mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha quvvati 34 850 tonnaga teng 79 ta va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini

qayta ishlash bo'yicha quvvati 26 840 tonnaga teng 153 ta yangi korxonalarni ishga tushirish ko'zda tutilgan.

1-jadval.

2016-2020 yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash bo'yicha yangi korxonalar qurish, amaldagilarini rekonstruksiya va modernizatsiya qilish bo'yicha investitsiya loyihalarining qiymati.

Investitsiya loyihalari	Loyihalar umumiy qiymati	moliyalashtirish manbalari bo'yicha:		
		o'z mablag'lari	bank kreditlari	xorijiy investitsiya va kreditlar
Jami (180 loyiha)	595 886,3	242 916,7	189 461,6	163 508,0
Shu jumladan				
Yangi qurilish (141 loyiha)	463 267,3	169 714,7	144 324,6	149 228,0
Rekonstruksiya va modernizatsiya (39 loyiha)	132 619,0	73 202,0	45 137,0	14 280,0

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 9 yanvardagi PQ-4563-son qarori bilan tasdiqlangan Investitsiya dasturiga muvofiq 2020 yilda moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga qariyb 233,2 trln. so'm kapital qo'yilmalar o'zlashtirilishi rejalashtirilgan, bunda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarning – 7,1 mlrd. dollar, davlat kafolati ostidagi xorijiy investitsiyalar va kreditlar – 2,7 mlrd. dollar o'zlashtirilishi lozim.

2020 yilning yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zlashtirilishi: qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 3182,5 mlrd. so'mni jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 9,5 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 2020 yil yanvar-sentabr oylarida Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 260.9 mlrd. so'mni jamiga nisbatan 0,9 % ni tashkil etdgan.

O'zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish strategiyasida qishloq xo'jaligiga 67,9-83,0 mlrd.dollar yo'naltirish ko'zda tutilgan.

Bu esa malakatimiz agrar sektoriga yo'naltirilayotgan investitsiyalar xajmini ortganligidan dalolat beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fikrimizcha qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va erkinlashtirish sharoitida fermer xo'jaliklarining ustuvor rivojlanishini ta'minlash orqali tarmoq barqarorligiga erishish mumkin, ya'ni:

- bevosita qishloq xo'jaligining yer-suv resurslaridan samarali foydalanish, moddiy-texnika bazasini zamonaviy texnikalar bilan jihozlash, yuqori hosildorli ekinlar va mahsuldor chorva mollari yetishtirishni keng yo'lga qo'yish orqali yuqori sifatli mahsulotlar yetishtirish;

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini kengaytiruvchi xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali.

Buning uchun esa qishloq xo‘jaligiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish va investitsiya faolligi quyidagi tamoyillar asosida amalga oshirilishi mumkin:

- qishloq xo‘jaligiga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etishni ta’minlaydigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va institutsional shart-sharoitlarni muntazam takomillashtirib borish;

- qishloq xo‘jaligi subyektlari, jumladan fermer va dehqon xo‘jaliklarini tashqi iqtisodiy faoliyatini tashkil etish, qo‘llab-quvvatlash, imtiyozlar berish va amalga oshirish mexanizmlarini rivojlantirish;

- xorijiy investorlarga nisbatan imtiyozli va rag‘batlantiruvchi siyosatni izchillik bilan olib borish;

- xorijiy investorlar mablag‘larini qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishini ta’minlaydigan va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlari keng bo‘lgan sohalar, mintaqalar va bevosita qishloq xo‘jaligini subyektlariga yo‘naltirish;

- subyektlarining ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan loyihalar ishlab chiqarishlariga har tomonlama amaliy yordam ko‘rsatish va ularni targ‘ibot qilish tizimini takomillashtirish.

Ushbu tamoyillarning amaliyotga joriy etilishi bevosita investitsiyalar, jumladan xorijiy investitsiyalarni qishloq xo‘jaligiga keng jalb etish, tarmoqning investitsiya faolligini oshirish va pirovardida uning barqaror rivojlanishga erishishini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy majlis qonunchilik palatasi va senatiga murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”. 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 9-yanvardagi PQ-4563-son Qarori.

4.O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma’lumotlari. 2019 yil.

5.O‘zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish strategiyasi konsepsiyasi.

6. “O‘zbekoziqovqatxolding” XK ma’lumotlari 2020 yil.

7.<https://mift.uz/uz/news/uzbekiston-respublikasining-2019-jil-uchun-investitsiya-faolijati-sarisobi>.

8.<https://lex.uz/docs/4689640>

9.<https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/5708-choraklik-natijalar-2020#yanvar-mart>

10.<https://data.gov.uz/uz/datasets/13371>

**TARMOQ BO‘YICHA IXTISOSLASHUV JARAYONLARINI
TADBIRKORLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISHIGA TA’SIRI
BO‘YICHA JAHON TAJRIBASI**

**МИРОВОЙ ОПЫТ ВЛИЯНИЯ ПРОЦЕССОВ СЕТЕВОЙ
СПЕЦИАЛИЗАЦИИ НА РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

**WORLD EXPERIENCE ON THE INFLUENCE OF NETWORK
SPECIALIZATION PROCESSES ON THE DEVELOPMENT OF
BUSINESS ACTIVITY**

Шарипов Кувондик Бахтиёрович –
Тошкент давлат иқтисодиёт университети “Фундаментал
иқтисодиёт” кафедраси докторанти (DSc), PhD, доцент в.б.
E-mail. k.b.sharipov@tsue.uz

Annotatsiya. Ixtisoslashuv turlari ichida tarmoq bo‘yicha ixtisoslashuv muhim o‘rin tutadi. Ya’ni, turli xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘z faoliyatlarini muayyan tarmoq xususiyatlariga muvofiq tashkil etadilar va amalga oshiradilar.

Kalit so‘zlar: Tarmoq, axborot texnologiyalari, tadbirkorlik, kichik biznes, sof tarmoqlar, xo‘jalik tarmoqlari.

Аннотация. Среди видов специализации важное место занимает сетевая специализация. То есть различные субъекты хозяйствования организуют и реализуют свою деятельность в соответствии с определенными сетевыми характеристиками.

Ключевые слова: Сеть, информационные технологии, предпринимательство, малый бизнес, чистые сети, экономические сети.

Annotation. Among the types of specialization, specialization by network occupies an important place. That is, various business entities organize and implement their activities according to certain network characteristics.

Key words: Network, information technology, entrepreneurship, small business, pure networks, economic networks.

KIRISH

Tarmoq – ishlab chiqarilayotgan mahsuloti, texnologiyasi va qondirayotgan ehtiyojlarining umumiylikiga ega bo‘lgan korxonalar va ishlab chiqarishlar majmui”
Quyidagi tarmoqlar farqlanadi:

- yagona turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi sof tarmoqlar (masalan, ko‘mir sanoati);

- tarmoq mahsulotini ishlab chiqarish bilan tarmoq tashkilotlarining asosiy qismi band bo‘lgan xo‘jalik tarmoqlari;

- tashkilotlari yagona vazirlikka, idoraga mansub bo‘lgan ma‘muriy tarmoqlar.

Moddiy ishlab chiqarish tarmoqlariga sanoat, qishloq va o‘rmon xo‘jaligi, qurilish, transport va aloqa, savdo va umumiy ovqatlanish, moddiy-texnik ta‘minot (logistika) kiradi.

Ijtimoiy-madaniy yo‘nalishdagi tarmoqlar, xizmat sohasiga quyidagilar kiradi: madaniyat, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta‘minot, fan, boshqaruv, uy-joy, kommunal xo‘jaligi, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish. Iqtisodiyot tarmog‘i sifatida bank sektori, axborot texnologiyalari bilan bog‘liq faoliyatlarni ham ajratib ko‘rsatish to‘g‘ri bo‘ladi (5).

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Fikrimizcha, ixtisoslashuv jarayonining tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga ta‘sirini quyidagi jihatlariga ko‘ra asosiy yo‘nalishlarga ajratish mumkin:

1) sof iqtisodiy, ya‘ni ixtisoslashuv natijasida ishlab chiqarish hajmi, tarmoq yoki iqtisodiy faoliyatning rentabellik darajasi, moliyaviy natijalar (foyda yoki zarar)ning o‘zgarishi;

2) texnik va texnologik, ya‘ni ixtisoslashuv natijasida tarmoq ishlab chiqarishida texnik vositalardan foydalanish, texnologik jarayonlar darajasining o‘zgarishi;

3) tashkiliy, ya‘ni ixtisoslashuv natijasida tarmoq ishlab chiqarishini tashkil etish, undagi aloqa va munosabatlarning amal qilishi darajasidagi o‘zgarishlar.

Umumiy holda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga ixtisoslashuv jarayoni ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Buni Adam Smitning to‘g‘nog‘ich haqidagi klassik misoli orqali ham ko‘rish mumkin. Biroq, shuni ham ta‘kidlash lozimki, ixtisoslashuvning salbiy jihatlari ham mavjud. Jumladan, adabiyotlarda ixtisoslashgan korxonalarining kamchiliklari sifatida quyidagilar ko‘rsatiladi:

- ish jarayonidagi birxillik, uning ishlovchilarga salbiy ta‘sirini pasaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarning zarurligi;

- mol yetkazib beruvchilar va xaridorlarga kuchli tarzda bog‘liqlik;

- bozordagi kichik konyunkturaviy tebranishlarga ta‘sirchanlik;

- odatda, so‘nggi iste‘molchiga chiqish imkoniyatining mavjud emasligi (6).

Umumiy holda, tadbirkorlik subyektlari uchun muayyan tarmoq ishlab chiqarishiga ixtisoslashuv mazkur jarayonning ijobiy (afzallik) tomonlari bilan

salbiy (kamchilik) tomonlarining farqi musbat ishoraga ega bo'lganida foydali hisoblanadi.

$$IT = \sum_{i=1}^n I_i - \sum_{j=1}^m C_j,$$

bu yerda:

I – tarmoq yoki iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha ixtisoslashuvning kichik biznes faoliyatining rivojlanishiga ta'siri (musbat yoki manfiy);

I – tarmoq yoki iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha ixtisoslashuvning kichik biznes faoliyatiga ijobiy ta'siri;

$i = 1 \dots n$ – tarmoq yoki iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha ixtisoslashuvning kichik biznes faoliyatiga ijobiy ta'siri yo'nalishlari;

C – tarmoq yoki iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha ixtisoslashuvning kichik biznes faoliyatiga salbiy ta'siri;

$j = 1 \dots m$ – tarmoq yoki iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha ixtisoslashuvning kichik biznes faoliyatiga salbiy ta'siri yo'nalishlari.

Iqtisodiy tahlil va tatbiqiy statistikaning xorijiy amaliyotida tarmoq jihatdan tasniflash emas, balki iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha guruhlash nisbatan keng tarqalgan hisoblanadi. BMT Statistika qo'mitasi tomonidan 1990 yilda ma'qullangan standart tasniflashda quyidagilar ajratib ko'rsatiladi: 1) qishloq va o'rmon xo'jaligi, ovchilik; 2) baliq yetishtirish va baliq ovlash; 3) tog' sanoati; 4) qayta ishlash sanoati; 5) suv ta'minoti, elektr energiyasi va gaz ishlab chiqarish; 6) qurilish; 7) ulgurji-chakana savdo, shaxsiy foydalanishdagi buyumlar va asbob-uskunalar (avtomobillar, maishiy texnika) ta'miri; 8) restoranlar va mehmonxona xo'jaligi; 9) aloqa, ombor xo'jaligi va transport; 10) moliyaviy sohada vositachilik; 11) ijara va ko'chmas mol-mulk bilan boshqa tijorat faoliyati; 12) davlat boshqaruvi va fuqarolik mudofaasi; 13) ta'lim; 14) ijtimoiy xizmatlar va sog'liqni saqlash; 15) boshqa kommunal, ijtimoiy va shaxsiy xizmatlar; 16) yollanma xodimlar bilan xususiy uy xo'jaligi; 17) eks-territorial tashkilotlar va idoralar.

Xo'jalik yuritishning bozor sharoitida tarmoq eng avvalo iqtisodiy kategoriyaga aylanadi. U qat'iy raqobat sharoitida amal qiluvchi hamda bozor talabi va taklifi qonunlariga bo'ysunuvchi mamlakat xalq xo'jaligi tizimi amal qilishining mustaqil elementi hisoblanadi.

Keyingi vaqtlarda iqtisodchilarning ilmiy ishlarida tarmoqqa ko'plab ta'riflar berilmoqda: tarmoq – bu mahsulotning unifikatsiyalashgan ishlab chiqarishi, texnologiyaning umumiyliigi va qondirilayotgan ehtiyojlarning keng qamrovligi xususiyatlariga ega bo'lgan yakka korxonalar va seriyali ishlab chiqarishlar majmui; tarmoq – ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ish va

ko'rsatilgan xizmatlar iqtisodiy ahamiyatining umumiyligi belgisi bo'yicha korxonalar, firmalar, korporatsiyalarning tartibga solingan majmui.

“Tarmoq” tushunchasining nisbatan to'liq ta'rifi YE.B.Kolbachevning ishida uchraydi: tarmoq ishlab chiqarilayotgan mahsulot, iste'mol qilinayotgan xom ashyo va material, foydalanilayotgan inson resurslari, yo'lga qo'yilgan texnologik jarayonlarning yaxlitligida namoyon bo'luvchi hamda iqtisodiy faoliyatning o'xshash turlarini amalga oshiruvchi korxonalarni birlashtiruvchi iqtisodiy omillar majmuining ta'siri ostida shakllanadi.

Quyidagi jadvalda “tarmoq” tushunchasi ta'rifiga iqtisodiy va qonunchilik jihatidan yondashuvlarning xususiyatlari namoyish etilgan (1-jadval).

Hozirgi vaqtda tarmoqlarning rivojlanishiga quyidagi yangi shart-sharoitlar ta'sir ko'rsatadi: ilmiy-innovatsion salohiyat (fundamental va amaliy tadqiqotlarning qo'llanishi); investitsion salohiyat; ijtimoiy va ishlab chiqarish sohalarining unumdorligini ta'minlovchi biznes-infratuzilmaning yetuklik darajasi; ma'lum tarmoqlar rivojlanishining aniq vaqt intervali doirasida rivojlanishning ustuvorligini shakllantiruvchi ma'muriy resurslar va boshqalar.

Mamlakat tarmoq tuzilmasining samaradorligi alohida tarmoq va ishlab chiqarishlarning shunday miqdoriy nisbati orqali tavsiflanadiki, unda mamlakatni shakllantiruvchi mintaqalarning samarali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ta'minlanadi.

1-jadval

“Tarmoq” tushunchasi ta'rifiga iqtisodiy va qonunchilik jihatidan yondashuvlarning xususiyatlari

Iqtisodiy jihatdan yondashuv	Yuridik jihatdan yondashuv
Korxonalar, korporatsiya, tashkilotlarning alohidalashti-riladigan va umumlashtiriladigan tuzilmasi	Iqtisodiy faoliyatning o'xshash turlarini amalga oshiruvchi barcha ishlab chiqarish birliklarining yig'indisi
<ul style="list-style-type: none"> – ishlab chiqarilgan mahsulot, ish, xizmat iqtisodiy ahamiyatining birligi, – iste'mol qilinayotgan xom ashyoning bir xildaligi va birligi, – texnologik baza va texnologik jarayonlarning umumiyligi, – kadrlar kasbiy tarkibining bir turdaligi 	<ul style="list-style-type: none"> – faoliyat sohasi, – ishlab chiqarish jarayoni (texnologiyasi), – foydalaniladigan xom ashyo va materiallar

Mintaqa tarmoq tuzilmasi tavsiflarini miqdoriy baholash ixtisoslashuv tarmoqlari deb nomlanuvchi mintaqadagi yetakchi tarmoqlarni izlash imkonini beradi. Mazkur baholash mahsulot ishlab chiqarish, hisobga olingan yalpi

qo‘shilgan qiymat va ta‘minlangan bandlik ko‘rsatkichlari yordamida amalga oshiriladi.

NATIJA

Mamlakat iqtisodiyoti tuzilmasida mintaqadagi tarmoq tomonidan egallangan holatni aniqlash uchun ishlab chiqarishning mahalliylashuvi (ixtisoslashuvi) koeffitsiyentlari hisoblanadi:

$$K_{ir} = \frac{q_{ir}}{Q_r} / \frac{q_i}{Q}$$

Bu yerda:

q_{ir} – r mintaqadagi i tarmoqning ishlab chiqarish o‘lchovi;

q_i – mamlakat bo‘yicha yaxlit i tarmoqning umumiy ishlab chiqarish miqdori;

Q_r – r mintaqadagi yalpi ishlab chiqarish o‘lchovi;

Q – mamlakat bo‘yicha yaxlit yalpi ishlab chiqarish hajmi qiymati.

K_{ir} koeffitsiyenti miqdori r mintaqadagi i tarmoqning konsentratsiyasini (yoki mahalliylashuv darajasini) ko‘rsatadi.

K_{ir} koeffitsiyenti miqdoridan ko‘proq qiymatga ega bo‘lgan tarmoqlar ixtisoslashuv tarmoqlari deb hisoblanadi. Mazkur tarmoqlar tashqi dunyo bilan mintaqaning eksport-import munosabatlarini ta‘minlaydi.

K_{ir} koeffitsiyenti qiymati 1 dan oshib ketsa, u holda r mintaqadagi i tarmoqning mahalliylashuv darajasi mamlakat yalpi ishlab chiqarishidagi mazkur tarmoqning o‘rtacha ulushidan ortadi.

Shuningdek, koeffitsiyent boshqa usul bilan hisoblanishi ham mumkin bo‘lib, bu ixtisoslashuv koeffitsiyentini izlashga olib keladi:

$$C_{ir} = \frac{a_{ir}}{a_r}$$

Bu yerda:

a_{ir} – i tarmog‘ining yalpi ishlab chiqarish hajmida r mintaqaning solishtirma salmog‘i;

a_r – yaxlit mamlakat bo‘yicha yalpi ishlab chiqarish hajmida r mintaqaning solishtirma salmog‘i.

Shu o‘rinda:

$$a_{ir} = \frac{q_{ir}}{q_i}, a_r = \frac{Q_r}{Q},$$

demak,

$$C_{ir} = K_{ir}$$

Aniqlangan K_{ir} va C_{ir} koeffitsiyentlar bir xildagi iqtisodiy talqinga ega, faqat ularning hisoblash algoritmlari bir-biridan farq qiladi.

Ishlab chiqarishning tarmoq tuzilmasi tahlili yordamida nafaqat ixtisoslashgan tarmoqlarni aniqlash, balki komplekslashgan va to'ldiruvchi tarmoqlarni ham topish mumkin.


Komplekslashgan tarmoqlar – bu ixtisoslashgan tarmoqlar bilan jarayonlar jihatidan kuchli darajada o'zaro bog'liq bo'lgan tarmoqlar. Masalan, xom ashyoni qazib olish, undirilgan xom ashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarish, xom ashyo qazib olish uchun asbob-uskunalar yetkazib berish, transport xizmatlari.

To'ldiruvchi tarmoqlar – bu uy xo'jaliklari ehtiyojlarini qondirishda, qator ijtimoiy vazifalar (oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, aholi uchun turar joy-kommunal majmuasi xizmatlari ko'rsatish va boshqalar)ni hal qilishda ishtirok etuvchi tarmoqlar [3].

Kichik korxonalarining eng ko'p soni savdo, qurilish va sanoatda yaratilgan. Quyida Yevropa va Osiyoning tarmoq bo'yicha tarkibiy tuzilmasi diagramma ko'rinishida keltirilgan [7].


Qurilish korxonalari va tashkilotlari hissasiga kichik korxonalar umumiy sonining 13%, qishloq xo'jaligi, ovchilik va o'rmon xo'jaligiga – 11%, qayta ishlash sanoatiga – 18%, transport va aloqaga – 14,0% to'g'ri keladi (1-rasm).

Kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha siyosatning asosiy vazifasi bo'lib unga investitsiya yo'nalishini berish hisoblanadi. Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha investitsiyalarning taqsimlanishi o'ta notekis amalga oshmoqda. Investitsiyalar deyarli to'rtta qismga ajratilgan. Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar sanoat va qurilishga asosiy urg'u beradilar, shuningdek savdo va moliyaviy faoliyatni moliyalashtiradilar



1-rasm. Yevropadagi kichik tadbirkorlikning tarmoq jihatidan tarkibiy tuzilmasi [8].

Osiyo mamlakatlari (Xitoy, Yaponiya, Tayvan)da 2014 yilda faoliyatning yetakchi tarmoqlari bo‘lib sanoat – 41%, qishloq xo‘jaligi – 21% hisoblanadi. Biroq, shu bilan birga, ahamiyatli darajada boshqa muhim tarmoqlar – transport va aloqa, qurilish, savdo ham qamrab olingan (2-rasm) .



2-rasm. Osiyodagi kichik tadbirkorlikning tarmoq jihatidan tarkibiy tuzilmasi [7,8].


Rasmlardagi diagrammalardan ko‘rinib turibdiki, kichik tadbirkorlikning tarmoq jihatidan tarkibiy tuzilmasi Yevropada ham, Osiyoda ham deyarli bir xil. Biroq Osiyoda, ayniqsa Xitoy kabi mamlakatlarda, nafaqat sanoat, balki qishloq xo‘jaligi sohasiga ham katta e‘tibor qaratiladi.

Faoliyat turiga ko‘ra kichik tadbirkorlik Yevropa va Osiyoda iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarini qamrab oladi. 2014 yilning yanvar holatiga Yevropada 20 mln.dan ortiq kichik korxonalar amal qiladi. Kichik korxonalarining umumiy sonida ilgorigidek “ulgurji va chakana savdo; avtotransport vositalari, maishiy va shaxsiy foydalanishdagi buyumlarning ta‘miri” iqtisodiy faoliyat turiga ixtisoslashgan korxonalar va tashkilotlar yetakchilik qilmoqda. Ularning solishtirma salmog‘i 21 foizni tashkil etgan.

MUHOKAMA

Kichik tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha siyosatning asosiy vazifasi bo‘lib unga investitsiya yo‘nalishini berish hisoblanadi. Iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha investitsiyalarning taqsimlanishi o‘ta notekis amalga oshmoqda. Investitsiyalar deyarli to‘rtta qismga ajratilgan.

Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar sanoat va qurilishga asosiy urg'u beradilar, shuningdek savdo va moliyaviy faoliyatni moliyalashtiradilar (3-rasm).



3-rasm. Yevropa Ittifoqida investitsiyalarni tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishi [8].

Biroq, mintaqa va uning iqtisodiy ustuvorligidan kelib chiqqan holda nafaqat faoliyatning ushbu sohalari investitsiyalanadi. Masalan, Yaponiya, Singapur va AQShda davlat va yirik kompaniyalar fan, ta'lim va yangi texnologiyalarga sarmoya kiritishadi. Yevropaning shimoliy mamlakatlari bo'lgan Daniya, Niderlandiya qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan shuning uchun ushbu mamlakatlarda investitsiyalash iqtisodiyotning mazkur tarmog'ini qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Xorijda kichik biznes raqobatni rivojlanishini rag'batlantiradi, yirik kompaniyalar tomonidan yangi texnologiyalarni joriy etilishi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirilishiga "majbur qiladi", butun iqtisodiyotning samaradorligi kichik va o'rta biznesning muvaffaqiyatli faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Shunga ko'ra, rivojlangan mamlakatlar kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosatini amalga oshirib, uning asosiy maqsadi – davlat va biznes manfaatlarini muvozanatlashtirish, tadbirkorlik faoliyati uchun optimal shart-sharoitlarni ta'minlash, kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish hisoblanadi.

Xorijiy tajriba ko'rsatadiki, kichik tadbirkorlik sohasida barcha innovatsiyalarning katta qismi amalga oshirilib, bu jamiyat ijtimoiy va siyosiy barqarorligining muhim omili sifatida ilmiy-texnika taraqqiyoti va "o'rta sinf"ning shakllanishiga imkon yaratadi [4].

XULOSA

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ko'rinadiki, tarmoq bo'yicha ixtisoslashuv jarayonining tadbirkorlik faoliyati rivojlanishiga ta'sirini e'tiborga olish hamda uning imkoniyatlaridan foydalanish milliy iqtisodiyotda kichik tadbirkorlik faoliyati ahamiyatining yanada oshishiga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь. - 2-ye izd., ispr. M.: INFRA-M. 479 s., 1999.; Экономика и право: словарь-справочник. – М.: Вуз и школа. Л.П.Кураков, В.Л.Кураков, А.Л.Кураков. 2004.
2. Н.С. Ричихина. Отрасл как экономическая и правовая категория: современные тенденции. «Современные наукоемкие технологии. Региональное приложение» №4 (36) 2013
3. Ширапов С.Д. Понятие, сущность и содержание отрасли и отраслевой структуры экономики региона // Вестник Бурятского государственного университета. - 2015. Вип. 2(2). – С.59-67
4. Абдибеков С.У., Беделбаева А.Е. Мировие тенденции развития предпринимательской деятельности в экономике зарубежных стран // Журнал: Вестник КазНУ, 2015. Алматы. -
5. <https://articlekz.com/article/15307>

**SANOAT KORXONALARINING MEHNAT RESURSLARIDAN
SAMARALI FOYDALANISHNING USLUBIY ASOSLARI**

**ОСНОВЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРУДОВЫХ
РЕСУРСОВ КАНОАТНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ**

**FUNDAMENTALS OF EFFICIENT USE OF LABOR RESOURCES OF
INDUSTRIAL ENTERPRISES**

Suvpo‘latov Ozodjon Alijon o‘g‘li

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Iqtisodiyot fakulteti “Fundamental
iqtisodiyot” kafedراسи assistenti**

e-mail: suvpulatovozod@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish mezonlari, bugungi kundagi mavjud holati, shuningdek ishlab chiqarish natijalariga mehnat salohiyati ta’siri o‘rganilgan. Muallif mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, korxonalarining iqtisodiy natijalarini yaxshilash va iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha mulohazalar yuritadi.

Kalitli so‘zlar: sanoat, korxonа, samaradorlik, ishlab chiqarish, baholash, fond qaytimi, kapital qaytimi, mehnat salohiyati, mehnat unumdorligi, iqtisodiyot.

Аннотация. В статье исследуются критерии повышения экономической эффективности промышленных предприятий, текущая ситуация, а также факторы, влияющие на результаты производства. Автор рассматривает развитие экономики страны, улучшение экономических показателей предприятий и повышение экономической эффективности.

Ключевые слова: промышленность, предприятие, эффективность, производство, оценка, доходность акций, возврат капитала, рентабельность, модернизация, экономика.

Abstract. This article examines the criteria for increasing the economic efficiency of industrial enterprises, the current situation, as well as the impact of labor potential on production results. The author examines the development of the country's economy, improving the economic performance of enterprises and increasing economic efficiency.

Keywords: industry, enterprise, efficiency, production, valuation, stock return, return on capital, labor potential, labor productivity, economy.

KIRISH

Sanoat tarmog'ini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, jahonning rivojlangan davlatlari amaliyotida ham sanoat yetakchi tarmoq hisoblanib, mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlaridan foydalanish iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash bilan birga darajasi aholi turmush farovonligiga bevosita bog'liq. So'ngi yillarda mamlakat hukumati tomonidan sanoat korxonalarini iqtisodiy va ilmiy-texnik salohiyatni yanada oshirilayotganligi, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarning takomillashayotganligi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalariga bo'lgan e'tiborni birinchi o'ringa qo'ydi. O'zbekistonda sanoat tarmog'ini rivojlantirish uchun 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida «aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulotni– 1,6 baravar hamda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravar ko'paytirish» [1] vazifasi belgilangan. Belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda sanoati korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan optimal foydalanish, mavjud mehnat va kapital resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadga muvofiq.

Sanoat korxonalarini iqtisodiy samaradorligini baholashda mehnat samaradorligini o'rganish talab etiladi. Bizga ma'lumki mehnat faoliyati aniq maqsadga asoslanib, mehnat resurslari tarkibi, unumdorligi va ish haqi kabi ko'rsatkichlar asosida baholanadi. Mehnat samaradorligini ortishi mehnat sarfini kamaytirish bilan birga mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi. Shu nuqtai nazaridan mavzu doirasida bir qancha adabiyotlarni o'rganib chiqdik va tadqiqotni IMRAD talablari bo'yicha metodologiya va natijalarni shakllantirish asosida yozdik

ADABIYOTLAR SHARHI VA TAHLILI

Mehnat resurslarining ta'rifi ikki so'zdan iborat - mehnat va resurslar. Eng avvalo, "resurslar" so'zining ma'nosiga alohida e'tibor berib o'tsak: T.F.Efremovning izohli lug'atida yozilishicha: "Resurslar bu -mavjud bo'lgan, ammo faqat zarurat bo'lganda foydalaniladigan vositalar yoki biror bir narsaning manbaidir". Ensiklopedik lug'atda quyidagi ta'rif berilgan - "Resurslar (fransuzcha manbadan - yordamchi vosita) - pul, zaxiralar, qadriyatlar, imkoniyatlar, mablag' manbalari, daromadlar (masalan, tabiiy resurslar, iqtisodiy resurslar)". Biznes lug'atiga ko'ra, "Resurslar" so'zining ma'nosi quyidagicha. Resurslar - mablag'lar, tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishga sarflanadigan imkoniyatlar. Shuningdek fransiyalik olim Jon Batist Sey ham o'zining ishlab chiqarishning uch omili nazariyasi bilan mashhur bo'lib, unga ko'ra ushbu omillarning birinchisi deb mehnat resurslari keltirib o'tiladi[2].

Zamonaviy adabiyotlarda ham ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar mehnat resurslarini takomillashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratgan.

Omillar	Omillarning mazmuni
Fiziologik	Jinsi, yoshi, sog'lig'i, aqliy qobiliyati, fiziologik qobiliyat va boshqalar
Texnik va texnologik	Yechiladigan masalalar xarakteri, mehnatning murakkabligi, texnik yangilanish, ilmiy texnik yutuqlardan foydalanish darajasi, ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy darajasi, fondlar bilan qurollanish darajasi va boshqalar
Tashkiliy	Mehnat sharoiti, xodimlar kategoriyalarining nisbati, korxonalar hajmi, ish tartibi, ish staji, ishchilar malakasi, xodimlardan foydalanish darajasi va boshqalar.
Ijtimoiy-iqtisodiy	Ishchilarni moddiy rag'batlantirish, sug'urtalash, ijtimoiy imtiyozlar, turmush darajasi hamda sifati va boshqalar.
Ijtimoiy-psixologik	Jamoadagi ma'naviy muhit, xodimning psixofiziologik holati, maqom va tan olinish, korxonaning tashkiliy madaniyati, xodimlarning ish faoliyatidan mamnunligi, xizmat pog'onasidan ko'tarilish istiqbollari va boshqalar.

1-jadval. Mehnat resurslaridan samarali foydalanishga ta'sir etuvchi omillar tasnifi [3]

M.Armstrongga ko‘ra: “Bugungi va kelajakdagi bozor ehtiyojlarini qondirish uchun ishchi kuchini tayyorlash uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni aniqlashni talab etadi”[4]. Dayneka va Bespolkolarning ta’kidlashicha “Inson resurslarini samarali boshqarish uchun personalni korxonaning asosiy, shu jumladan, strategik maqsadlariga erishish uchun asosiy resurslaridan biri sifatida qabul qilish lozim”[5].

Shunday qilib, mehnat resurslari korxonalar uchun mablag‘ va daromad manbalaridan biri hisoblanadi. Mehnat resurslari korxonalar uchun daromad manbai bo‘lishi uchun ularni samarali boshqarish, ulardan to‘g‘ri foydalanish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mehnat resurslaridan foydalanish.Foydalanish deganda iqtisodiyotning resurslaridan biri bo‘lgan mehnat resurslarini ta’riflovchi ikki yo‘nalish tushuniladi. Bu, birinchidan, mehnat resurslarining taqsimlanishi va ikkinchidan ularning mehnatidan xalq xo‘jaligi va iqtisodiyotda foydalanish samaradorligidir.

Mehnat resurslarini taqsimlash deganda resurslarning xalq xo‘jaligida ishlaydigan va ishlaymaydigan qismlari tushuniladi. Ishlaydigan aholi, o‘z navbatida, ayrim tarmoqlar, kasb guruhlar bo‘yicha taqsimlanishi, shu jumladan,

aqliy va jismoniy mehnat bo'yicha, mehnat rejimi bo'yicha, sotsial-iqtisodiy sohalar bo'yicha qarab chiqiladi.

Mehnat bilan bandlarni xalqaro jihatlardan biri ularni «iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha» quyidagicha taqsimlashdir:

- yollanma xodimlar (korxonada rahbari yoki ayrim shaxs bilan mehnat shartnomasiz fuqarolar);

- ish beruvchilar (mustaqil ish olib boradigan va bitta yoki bir nechta shaxsni ishlash uchun doimiy yollab turadigan xodimlar kiradi);

- o'z hisobidan ishlaydigan shaxslar (doimiy asosda yollanma xodimlarni yollamaydigan fuqarolar);

- ishlab chiqarish kooperativlari a'zolari (kooperativlarning faol ishlovchi a'zolari

hisoblanadigan shaxslar).

Korxonada mehnat unumdorligini oshirish hamda mehnat resurslarini samarali boshqarish usullaridan biri motivlashtirish vositasida boshqarish usuli hisoblanadi. Motivlashtirish strategiyasini tanlashda uchta yondoshuv mavjud:

1. Rag'batlantirish va jazo strategiyasi. (ya'ni, har bir xodim mukofotga intiladi.)

- a. kim ko'p va yaxshi ishlasa, unga yaxshi haq to'lanadi;

- b. kim undan ko'p ishlasa shunchalik ko'p mukofotlanadi;

- c. kim sifatsiz ishlasa, u jazolanadi yoki jarima to'laydi.

2. Ish orqali motivlashtirish. (agarda xodimga uni qoniqtiradigan ishni berilsa, ijro etish sifati yuqori bo'ladi.)

3. Menejerlar bilan har doim aloqada bo'lish strategiyasi: bo'ysinuvchilar bilan birga maqsadni aniqlab olish. Bu motivlashtirish modeli rahbar bilan xodim o'rtasidagi munosabatni tahlil qilish va unga ustuvorlik berishga asoslanadi.

Motivlashtirishning quyidagi usullari qo'llaniladi:

- pulni rag'batlantirish va mukofotlash sifatida ishlatish;

- jazolash;

- raqobatni kuchaytirish;

- ish orqali motivlashtirish;

- yutuqni tan olish va taqdirlash;

- xodimlarni o'qitish va yuksaltirish;

- salbiy ta'sirni cheklash va me'yorlash;

- guruh mehnatini mukofotlash va rag'batlantirish;

- xodimlarni boshqarish ishlariga jalb etish va hk.

Biz yana «mehnatni sarf qilish samaradorligi» degan ta'rifni aniqlab olishimiz kerak. Har qanday faoliyat turidagi samaradorlik pirovard natijada

mahsulot yoki xizmatlar birligini ishlab chiqarishga sarflanadigan vaqt bilan o'lchanadi. Mehnat sarf qilish samaradorligi bo'yicha mintaqalar farqiga sabab shuki, turli hududlarda texnologiya darajasi, mehnatni tashkil etish darajasi turlicha bo'ladi. Turli sabablarga ko'ra, shu jumladan, etnik va tarixiy xususiyatlarga ega bo'lgan sabablarga ko'ra ham xodimlar malakasi bir-biridan farq qilishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxonalarining kerakli mehnat resurslari bilan yetarli darajada ta'minlanishi, ulardan oqilona foydalanish, mehnat unumdorligining yuqori darajada bo'lishi, mahsulot hajmini ko'paytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun katta ahamiyatga egadir. Xususan, barcha ishlarning hajmi va o'z vaqtida bajarilishi, asbob-uskunalar, mashinalar, mexanizmlardan foydalanish samaradorligi va buning natijasi sifatida mahsulot ishlab chiqarish hajmi, uning tannarxi va boshqa bir qator iqtisodiy ko'rsatkichlar korxonalarining mehnat resurslari bilan ta'minlanganligiga va ulardan samarali foydalanishga bog'liqdir.

Tahlil qilishning asosiy vazifalari quyidagilardir: -korxonalar va uning tarkibiy bo'linmalarining, shuningdek, toifalar va kasblar bo'yicha mehnat resurslari bilan ta'minlanganligini o'rganish va unga baho berish; -mehnat resurslari ko'nimsizligi ko'rsatkichlarini aniqlash va o'rganish va mehnat resurslari zahiralari aniqlash, ulardan yanada to'laroq va samaraliroq foydalanish. Mehnat resurslari sifat tarkibini malaka bo'yicha tahlil qilish zarur. Xodimlarning malaka darajasi ko'p jihatdan ularning yoshiga ish stajiga, ma'lumotiga va hokazolarga bog'liqdir. Shu sababli, tahlil jarayonida ishchilarning yoshi, ish staji, ma'lumoti bo'yicha o'zgarishlar o'rganiladi.

Sanoat korxonalarida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning yana muhim bir omili ularni samarali boshqarishni tashkil etishdir. Mehnat resurslarini boshqarish bu mehnat vazifalarini bajarishda ularning aqliy va jismoniy qobiliytlaridan eng unumli foydalanish maqsadida ularning manfaatlari, xulq-atvori va faoliyatiga ta'sir ko'rsatish tamoyillari, usullari, shakllari va vositalari yig'indisidir.

Mehnat resurslarini boshqarish menejmentning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, odamlar va ularning korxonalar ichidagi munosabatlari bilan bog'liq bo'ladi. Aynan odamlar ijod, tashabbus hamda korxonalar oldida turgan vazifalarni bajarish uchun kuch-quvvat manbaidir. Odamlarni boshqarmasdan hech bir tashkilot, xoh u katta yoki kichik bo'sin, xoh u tijorat yoki notijorat tashkilot bo'lsin, faoliyat ko'rsata olmaydi. Mehnat resurslarini boshqarish sohasida asosiy vazifa har bir kadrlarning o'z imkoniyatlarini amalga oshirishi uchun sharoit yaratish va har bir

muayyn holatda insonga uning oldida turgan vazifalarni hal qilish maqsadida zarur ta'sir ko'rsatish vositalarini topish. Mehnat resurslarini boshqarish ular o'rtasidagi munosabatlarda adolat va samaradorlikka erishishga yo'naltiriladi. Buning uchun mehnatni ilmiy tashkil etish, ergonomika qoidalari talablariga mos keluvchi ishchi o'rinlari va mehnat predmetlarini yaratish, ularni to'g'ri motivatsiyalash tadbirlarini ishlab chiqarish maqsadga muvofiq bo'ladi. To'g'ri motivatsiyalash uchun esa mehnat resurslarini motivlarini aniq bilish talab etiladi.

Mehnat resurslarini boshqarish tuzilmasi quyidagi faoliyat yo'nalishlarini qamrab oladi:

- resurslarni rejalashtirish: inson resurslariga bo'lgan ehtiyoj va buning uchun zarur harajatlarni qondirish rejasini ishlab chiqish;

- mehnat resurslarini ishga olish: barcha lavozimlar bo'yicha potentsial nomzodlar zahirasini yaratish;

- tanlov: nomzodlarning ish joyiga mosligini baholash, ulardan eng yaxshilarini zahiradan tanlab olish;

- oylik ish haqi va tovon pullarini belgilash: mehnat resurslarini jalb qilish, ishga yollash va ushlab qolish maqsadida oylik ish haqi va imtiyozlar tuzilmasini ishlab chiqish;

- kasbga yo'naltirish va moslashuv: yollangan mehnat resurslarini tashkilot va bo'linmalarga kiritish, mehnat resurslariga tashkilot ulardan nimani kutayotganligi va qanday mehnat munosib baholanishini tushuntirish;

- o'qitish: mehnat resurslari mehnati samaradorligini oshirish maqsadida ularni o'qitish dasturlarini ishlab chiqish;

- mehnat faoliyatini baholash: mehnat faoliyatini baholash uslubiyni ishlab chiqish va uni mehnat resurslariga yetkazish;

- lavozimini oshirish, pasaytirish, boshqa ishga o'tkazish, ishdan bo'shatish: mehnat resurslarini javobgarlik darajasi ko'proq yoki kamroq bo'lgan boshqa ishga o'tkazish usullarini ishlab chiqish, boshqa lavozim yoki ish joyiga o'tkazish yo'li bilan mehnat resurslari tajribasini oshirish, shuningdek, ishga yollash shartnomasini bekor qilish;

- rahbar mehnat resurslarini tayyorlash, xizmat pillapoysi bo'ylab harakatlanishni

- boshqarish: rahbar mehnat resurslari qobiliyatlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish;

- mehnat munosabatlari: jamoa shartnomalarini imzolash bo'yicha muzokaralar olib borish;

- bandlik: bandlik bo'yicha bir xil imkoniytlarni ta'minlash dasturini ishlab chiqish (bandlik kafolatlari va mehnat resurslari qo'nimsizligini pasaytirish

iqtisodiy samarani oshiradi va mehnat resurslarini mehnat samaradorligini oshirishga undaydi).

XULOSA VA MUHOKAMA

Xulosa qilib aytganda, sanoat xodimlari mehnat resurslaridan samarali foydalanish – bu kam mehnat sarfi va yuqori xizmat sifati orqali iste'molchilar ehtiyojini yuqori darajada qondirish uchun tovarlar va xizmatlar realizatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan ko'p tomonlama faoliyat natijasida erishishda ijtimoiy hamda iqtisodiy samaradorlik balansini mehnat munosabatlari orqali aks ettirishdir.

Mamlakat miqyosida kambag'allikni kamaytirishga mahalliy aholining iqtisodiy faolligi va malakaviy kasbiy darajasini oshirish, ishchi kuchining salmoqli qismini faoliyatiga yarasha yuqori ishhaqi bilan ta'minlash, xorijdan investitsiyalarni jalb etish bo'yicha faol harakatni amalga oshirish, sanoatning yengil, qayta ishlash va boshqa sohalarida, qurilish, xizmat ko'rsatish, ijtimoiy infratuzilma, xususiy tadbirkorlik, oilaviy tadbirkorlik va boshqa tarmoqlari hamda sohalarida ish o'rinlari tashkil etishning yuqori darajasini ta'minlash, mehnat bozoridagi faol siyosatni moliyalashtirishni faol rivojlantirish kabilar ham bevosita ta'sir etadi.

Sanoat korxonalarida mehnat salohiyatidan yetarli foydalanmaslik (sanoat xodimi real va potensial imkoniyatlari bilan ularni amalga oshirish o'rtasidagi nomuvofiqlik) ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish ehtiyojlari bilan sanoat xodimlarining kasbiy tarkibi o'rtasidagi, xodimlar malakasining mavjud va haqiqatga zarur darajasi o'rtasidagi nomuvofiqlikda mehnat funksiyalarini oqilona taqsimlashda mehnatdan, uni tashkil etishdan va shart-sharoitlardan qoniqmaslikda; xodimdagi mas'uliyatni his qilish tuyg'usining yetarli rivojlanmaganida va hokazo omillarda namoyon bo'ladi.

Mazkur omillar sanoat korxonalarida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligining pasayishiga, sanoat ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sifatiga, natijada mehnat samaradorligi va ishhaqi, xodimning turmush farovonligi pasayishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI VA INTERNET RESURSLARI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvarda "2022-2026 yilarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli Farmoni.
2. Abdurahmonov Q., Bozorov N., Volgin N va boshqalar. «Mehnat iqtisodiyoti vasotsiologiyasi». Toshkent: «O'qituvchi»-2001 yil, 343 bet.
3. <https://ijtimoiy.uz/2401/>

4. Abdurahmonov Q.X, Abdurahmonov X.X “Mehnat resurslarini boshqarish” darslik. Toshkent 2014, 7-8-betlar.
5. Armstrong M. Human resource management practice-Kogon page limited, 2020.
6. Deyneka A., Bespalko V Upravleniye chelovecheskimi resursami.- Litres, 2021.
7. У.Френч «Управления кадрами предприятия» С.Питербург «ДомКарпова»2009г
8. STAGES AND ANALYSIS OF THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL ECONOMY. T Akhmadali - Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 2022
9. Ефимова М.Р. Статистические методы в управлении производством. – Москва: Финансы и статистика, 1998. – С. 32.
10. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти: назария ва амалиёт / Дарслик. – Тошкент: “Fan”, 2019. – 424 б.
11. Ортиқов А. “Саноат иқтисодиёти” (дарслик). – Тошкент: ТДИУ. 2004.

MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA KICHIK BIZNESNING ROLINI OSHIRISH VA UNI QO‘LLAB-QUVVATLASH

Ruziyeva Dilobar Isomjonovna
TDIU dotsenti, i.f.d.

Fayziyeva Dilso‘z Bahodirovna
TDIU fundamental iqtisodiyot kafedrası assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqa iqtisodiyotida kichik biznesni rivojlantirishning ahamiyatli tomonlari va uni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmi, sohani rivojlanishiga yaratilgan imkoniyatlar to‘g‘risida gapirilgan va bugungi kunda kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirish va ishbilarmonlik muhitini yanada qulaylashtirish borasidagi taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ishbilarmonlik muhiti, eksport, yangi sanoat zonalari, biznes-inkubatorlar, soliq siyosati, soliq islohotlari, soliq yuklamasi, soliq ma‘muriyatchiligi, kambag‘allikni qisqartirish, mikrofirmalar, o‘rta tadbirkorlik, yirik tadbirkorlik, kichik korxonalar, investitsiya va xususiy mulk.

Аннотация. В данной статье говорится о важных аспектах развития малого предпринимательства в экономике региона и механизме его государственной поддержки, о возможностях, создаваемых для развития отрасли, а также предложения и рекомендации по развитию деятельности малого бизнеса. субъектов предпринимательства и сделать сегодня бизнес-среду более комфортной.

Ключевые слова: бизнес-среда, экспорт, новые индустриальные зоны, бизнес-инкубаторы, налоговая политика, налоговые реформы, налоговое бремя, налоговое администрирование, сокращение бедности, микропредприятия, средние предприятия, крупные предприятия, малые предприятия, инвестиции и частная собственность.

Abstract. This article talks about the important aspects of the development of small business in the economy of the region and the mechanism of state support for it, the opportunities created for the development of the industry, and offers and recommendations for the development of the activities of small business entities and making the business environment more comfortable today.

Key words: business environment, export, new industrial zones, business incubators, tax policy, tax reforms, tax burden, tax administration, poverty reduction, micro-enterprises, medium-sized enterprises, large enterprises, small enterprises, investment and private property.

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish, farovon turmushini ta'minlashda muhim o'rin tutayotgan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash masalasi davlat siyosatining strategik yo'nalishlaridan biridir. Shuning uchun ham o'z nutqlarida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: "Yagona yo'limiz – tadbirkorlar sonini ko'paytirish, odamlarni ishbilarmon qilish! Har bir hokim budgetga qo'shimcha daromadlarni ta'minlashi uchun o'zi izlanishi, tadbirkorga sharoit yaratib, biznes vakillari bilan yelkama-yelka ishlashi kerak, – dedi Shavkat Mirziyoyev[7],- deb ko'p bora ta'kidlab o'tdi.

ASOSIY QISM

Kichik biznesni rivojlantirishda mintaqalar muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan mahalliy hokimiyat organlari o'z hududining moliyaviy va moddiy imkoniyatlarini, mahsulot va xizmatlarning muayyan turlari bo'yicha aholining haqiqiy ehtiyojlarini, mintqa nuqtai nazaridan faoliyat sohalari va mulkchilik shaklidagi resurslardan samarali foydalanish yo'llarini aniq bilishadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda mintqa iqtisodiyotini rivojlantirish va bunda kichik biznesning rolini oshirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimiz mintaqalarida kichik biznes subyektlari o'z faoliyatlarini yuritishlari uchun qator qulaylik va imkoniyatlar yaratilmoqda. Kichik biznes subyektlariga yaratilgan imtiyoz va yengilliklar mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston respublikasining 2016 yil 29 dekabrda "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun va hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilgan to'g'risida"gi O'RQ-418-son Qonuni [1]ning qabul qilinganligi barcha kichik biznes subyektlari mustaqil faoliyat olib borishlari uchun ularning faoliyatini yanada mustahkamlashga huquqiy asos bo'ldi. Bundan tashqari mamlakat iqtisodiyotida tadbirkorlikni rivojlantirishga va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida oxirgi ikki yarim yil ichida Prezidentning ellikdan ortiq farmon va qarorlari qabul qilingan.

METOD VA TAHLILLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF- 60-son Farmoni [3]ning 29 qadamida Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish

keltirib o'tilganligi bejiz emas. Bu borada mamlakat iqtisodiyotida har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan «Ochiq muloqoti»ni o'tkazayotganligi, hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini tashkil qilinayotganligi va biznes-inkubatorlar tizimini rivojlantirilayotganligi, sharoiti og'ir bo'lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratilayotganligi fikrimiz dalilidir.

Shu bilan birgalikda, 2026 yilga borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirishi, hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish, tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatini boshlashi uchun zarur ma'lumotlarni erkin foydalanishga chiqarishi, iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorga keng yo'l ochilishi kabi qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Yurtimizda kichik biznes subyektlari faoliyatini yanada rivojlantirish uchun 2023 yilning 10 fevralida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-21-son Farmoni[4]ning qabul qilinganligini keltirish mumkin.

Bugungi kunda kichik biznes subyektlari faoliyatini amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan soliq islohotlarini izchil davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish hamda 2022 yilning 22 avgust kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda[8]. Bularga:

tadbirkorlik subyektlarini kichik tadbirkorlik (mikrofirmalar- yil davomida 1 milliard so'mgacha bo'lgan tadbirkorlik subyektlari, va kichik korxonalar- yil davomida 1 milliard so'mdan 10 milliard so'mgacha bo'lgan tadbirkorlik subyektlari), o'rta tadbirkorlik (yil davomida 10 milliard so'mdan 100 milliard so'mgacha bo'lgan tadbirkorlik subyektlari) va yirik tadbirkorlik (yil davomida 100 milliard so'm va undan yuqori bo'lgan tadbirkorlik) subyektlari sifatida faoliyati tashkil qilib, bunda ularga turli xildagi imtiyozlar berilishi bilan farqlab, faoliyatini yanada rivojlantirishga amaliy yordam ko'rsatilmoqda. Tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish jarayonini toifalarga ajratish tizimi: tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi hisobidan bir yilda bir marotaba o'rta tadbirkorlik subyektlariga mol-mulkni sug'urta qilish xarajatlarining 50 foizigacha, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravaridan oshmagan qismi qoplab berilishi, jami daromadi 10 milliard so'mdan kam bo'lmagan tadbirkorlik

subyektlari uchun davlat xaridlarida 20 foizlik kvota joriy etilishi (ushbu xaridlar doirasida budjet buyurtmachilari bilan tuziladigan shartnomalarda 50 foiz miqdorida oldindan to'lovni amalga oshirish nazarda tutilmoqda) va shunga o'xshash imkoniyatlarning davlat tomonidan yaratilayotganligi bejizga emas albatta.

2017-2022 yillarda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda [9]

NATIJALAR VA XULOSA

Mamlakat iqtisodiyotida yaratilgan imkoniyatlarning natijasi o'laroq, yurtimizda 2023 yilning 1 yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 523,6 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 60,8 mingtaga ko'paygan yoki 13,1 % ga oshgan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 17,9 birlikni tashkil qildi.

Hududlar bo'yicha 1 yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda [9] 2023 yil 1 yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) soni jami 523 556 tani, shundan yangi tashkil etilganlari 90 177 tani tashkil etdi.

- 2023 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Toshkent shahrida 106 071 tani yoki jamiga nisbatan 20,3 % ni tashkil etdi.

- 2022 yilning yanvar-dekabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida 35,9 birlik, Navoiy viloyatida 24,8 birlik, Sirdaryo viloyatida 23,0 birlik, Jizzax viloyatida 21,5 birlik va Toshkent viloyatida 19,7 birlikni tashkil etgan [9].

- Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznesning rolini oshirish va bunda mahalliy hokimiyatning ta'sir qilish imkoniyatlaridan foydalanish orqali sohani yetarli darajada jiddiy rivojlanishiga erishish mumkin.

- Bizga ma'lumki, kichik biznes subyektlarini rivojlantirish orqali ish o'rinlari yaratish imkonini beradigan davlat, tarmoq va hududiy dasturlar, loyihalar hamda tadbirlar amalga oshirilmoqda.

- Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda iqtisodiy faol aholining 65-75 foizi xususiy sektorda bandligini inobatga olib, bu sektorda faoliyat yuritish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud bo'lishi yanada samarali mexanizm ishlashini taqozo etadi.

- Amalga oshirilayotgan islohotlar davomida kichik biznes subyektlarini rivojlantirish jabhalaridagi muammolarni hal etish va tegishli chora-tadbirlarini ko'rib borish har birimizning vazifamizga aylanishi kerak.

- Bugungi kunda kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirish va

ishbilarmonlik muhitini yanada qulaylashtirish borasida quyidagi choralarni qo‘rish maqsadga muvofiqdir, xususan:

- har bir hududiy miqyosdan kelib chiqqan holda mahalliy boshqaruv idoralari tomonidan kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni qo‘llash;
- kichik biznes subyektlari faoliyatida mahsulot eksportini kuchaytirish va bu yo‘nalishdagi muammolarni hal etish;
- kichik biznes subyektlari uchun investitsiyalar joriy etishni yanada kengaytirish va bunga ko‘maklashish;
- xorijiy investitsiyalarni kiritishda salohiyatli investorlarga e‘tibor qaratish va ulardan modernizatsiya jarayonlarida unumli foydalanish;
- xususiy mulk va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va davlat tomonidan ularning ta’sirchan himoyasini ta’minlashga erishish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston respublikasining 2016 yil 29 dekabrda “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun va hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritii to‘g‘risida”gi O‘RQ-418-son Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 martdagi “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5975-son Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yilning 10 fevralida “Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-son Farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 martdagi “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora- tadbirlari to‘g‘risida” PF-5975-son Farmoni.

6. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

7. <https://president.uz/uz/lists/view/3262>

8. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/08/23/meeting-with-businessmen/>

Iqtisodiy tadqiqotlar

ILMIY JURNALI

**Tahririyat manzili:
100003, Toshkent sh., Chilonzor tumani, I. Karimov ko'chasi 49-uy
Telefonlar *******